MUNDARIJA

Kirish……...….3

I BOB. Zamonaviy tarjimashunoslikda badiiy tarjimaning roli

1.1. Tillararo muloqot jarayonida badiiy tarjima va uning qiyinchiliklari…6

1.2. Badiiy tarjimada milliylik muammosining berilishi.....16

I bob bo‘yicha xulosa.....24

II BOB. Badiiy tarjimada milliy koloritni saqlash masalalari

2.1. Badiiy tarjimada adekvatlikka erishish muammolari……26

2.2. Milliy kolorit va uni tarjimada berilishi……36

II bob bo‘yicha xulosa.....46

III BOB. Jeyn Ostin ijodiga murojaat (G’urur va Andisha)

3.1. Jeyn Ostin va uning “G‘urur va Andisha” asari……47

3.2. “G‘urur va Andisha” asari tarjimasida milliy koloritni berish……54

III bob bo‘yicha xulosa.....57

Xulosa……...……..58

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati……..……...60

Ilova

KIRISH

Biz bugungi kunda zamonaviy hayotimizni chet tillar va ularning o‘rganishsiz tasavvur etaolmaymiz. Zero biror bir chet tilini mukammal tarzda bilish bugungi kunda yangilik darajasida emas balki talab darajasiga ko‘tarildi. Shu bilan bir qatorda tarjima va tarjima sohalari ham yildan yilga rivoj topmoqda bunga sabab o‘z adabiyotimizni chet davlatlarga tanitish va albatta ushbu boy adabiy me’rosimizni tarjimasi mobaynida undagi o‘ziga hoslikni saqlash juda muhimdir.Chunki har qanday tarjimani mukammal amalga oshirish uchun ikki tilni ham ona tilini ham chet tilini ham mukammal tarzda egallash lozim. Til o‘rganishning eng oson va qulay yo‘llaridan biri bu tarjima deb aytsak xato qilmagan bo‘lamiz, chunki tarjima jarayoni o‘ta murakkab jarayon hisoblanib unda nafaqat til bilish balki til me’yorlaridan to‘g‘ri foydalanaolish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjima sohasi shunday bir umumiy sohaki u o‘z ichiga jamiyatimizning barcha sohalarini oladi. Shu bilan bir qatorda tarjima sohalarining xilma xilligi va betakrorligi bilan ajralib turadi. Ammo badiiy tarjimaing o‘rni ushbu sohalar va yo‘nalishlar orasida tutgan o‘rni beqiyosdir. Chunki badiiy asar bu eng avvalo biror bir mamlakatning madaniyat o‘choqlarida yaratilgan bebaho me’rosdir uning boshqa bir tilda qayta yaratilishi yani tarjima qilinishi bu juda muhim ijtimoiy hodisadir. Shunday badiiy asarlarning tarjimasidan tarjima qilingan mamlakatning kitobxonlari beqiyos badiiy va ma’naviy ozuqa oladi. Agar tarjimon o‘z oldiga qoygan maqsadini amalga oshirishni xohlasa u ikki til va ikki mamlakat tarixi ularning madaniyati haqida to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lishi lozim hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda minglab milliy adabiyotlarimiz chet tillariga tarjima qilinayotir va shu qatorda chet el adabiyotlari ham bizning tilga o‘girilmoqda. Bu albatta juda yaxshi natija deb aytishimiz mumkin lekin har bir plyusning minusi yoki har bir yaxshi natijaning yomon tarafi ham bo‘ladi.Badiiy tarjima bu shunday bir nozik va estetik jarayonki uning jarayonida tarjimondan yuksak tajriba va mahorat talab etiladi. Hozirgi kunda bevosita tarjimalarni topish juda qiyin masala bo‘lib qoldi ya’ni badiiy tarjimonlar chet tilidagi badiiy asarni

bevosita emas balki bilvosita bir bir til yordami orqali amalga oshirishmoqda. Bunday tarjima bevosita qilingan tarjimadan anchagina farq qiladi chunki bilvosita tarjimada o‘sha bir mamlakatga tegishli bo‘lgan milliy o‘ziga xoslik, ya’ni milliy koloritni berilishi uncha talabga javob bermaydi bunga sabab o‘sha chet tilidagi asar boshqa bir til orqali o‘z xususiyatini ancha yoqotadi ya’ni o‘ziga xosligini yoqotadi bu esa kutilgan natijani bermaydi kutilgan natija esa kitobxonga ta’sir o‘tqazaolish va uni hayratlantirish juda muhimdir.Agar tarjimon bevosita tarjimada xuddi shunday natijaga erishaolsa kitobxonlar yana bir betakror tarjima asrga erishishgan deb bemalol ayta olamiz.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Tarjima va badiiy tarjima to‘g’risida batafsil ma’lumot berish;
2. Badiiy tarjima matnlarini tarjima qilinishi va ularni tarjima qilishdagi o‘ziga xos xususiyatlar;
3. Badiiy tarjima matnlarini tarjima qilish jarayonida qo‘llaniladigan usullar va usullar haqida ma’lumot berish;
4. Badiiy tarjima jarayonida ingliz tilida berilgan asarni o‘zbek tili vositalari yordamida almashtirish va muqobil variantlarini berish;
5. Badiiy asarlarni tarjima qilishda kelib chiqadigan muammo va qiyinchiliklarga yechimlar topish;
6. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga qilngan badiiy asarlarni tarjimalarini tahlil qilish;
7. Badiiy asarlarni tarjima qilishda milliy koloritni berish bo‘yicha tavsiyalar berish.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Ushbu ishning o‘rganilganlik darajasiga ko‘ra Ingliz tili adabiyotiga bundan oldin ham murojaat qilingan bunday asarlardan Chol va Dengiz asarining tarjimasini undan tashqari yana bir qancha Ingliz tilidagi asarlarning tarjimasini misol sifatida keltirishimiz mumkin. Ushbu mavzu yuzasidan yana Ingliz adabiyoti durdonalaridan mashxur ingliz adibi va yozuvchisi ingliz asdabiyotshunosligining asoschilaridan biri V.Shekspirning bir qabncha

asarlari tarjimasi borasida olib borilgan ishlarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Romeo va Julyetta, Qirol Lir va boshqa bir qancha asarlar tarjimasi mobaynida ushbu mavzu yuzasidan ishlar olib borilgan.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Ingliz tilida yaratilgan dunyoga mashhur ingliz adibasi Jeyn Ostinning “Gurur va Andisha” asarini tarjimasida milliy koloritni saqlash muammosi bitiruv malakaviy ishimizning obyekti bo‘lib hisoblanadi.Bundan tashqari ushbu asarning bevosita amlga oshirilgan tarjimasi mavjud emas faqatgina rus tiliga tarjima qilingan tarjimasi bo‘lganligi tufayli biz ingliz tilidan bevosita tarjima qilishda badiiy asar tarjima qilish yo‘llarini ko‘rib chiqish va betakror badiiy tarjimani amalga oshirish yo‘llari bitiruv malakaviy ishimizning predmeyi bo‘lib hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda biz dunyoga mashxur ingliz adabiyotining durdona asrlaridan biri bo‘lmish Jeyn Ostinning “G’urur va Andisha “ asari tarjimasida milliy koloritni berilishi asardagi milliy o‘ziga xoslikni berilishi muammosini hal etish.Shuni aklohida ta’kidlab o‘tish lozimki milliy koloritni berilish muammosi bundan oldin ham murojaat qilingan bo‘lib ammo bizning tanlagan asarimiz shu vaqtgacha boshqa tillarga tarjima qilingan bo‘lib ammo O‘zbek tiliga bevosita tarjma amalga oshirilmagan va faqatgina rus tiliga tarjima qilingan matndan bilvosita tarjima amalga oshirilgan. Biz ishimizda batafsil Jeyn Ostinning hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar berdik va asardan na’muna sifatida bevosita tarjima amalga oshirdik. Ushbu tarjimada milliy koloritning berilishini ta’minlashga harakat qildik.

Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi Kirish, 3ta Bob, Xulosa, Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati va ilovadan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 61 sahifani tashkil etadi.

I BOB

Zamonaviy tarjimashunoslikda badiiy tarjimaning roli

1.1. Tillararo muloqot jarayonida badiiy tarjima va uning qiyinchiliklari

Ingliz tili termini bo‘lmish “translation” (tarjima) birinchi bor 1340- yillarda ishlatilgan, ushbu so‘z yoki termin aslida Qadimiy Fransuz tilidan olingan bo‘lib ‘translation’ yoki yanada aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak Lotin tilidan olingan bo‘lib ‘translatio‘ (‘transporting’ Eng . o‘tkazish, yetkazish Uzb.), ya’ni ushbu so‘z ‘transferre’ fe’lining sifatdoshi bo‘lib (‘to carry over’ Eng.) hisoblanadi. Hozirgi kunda tillar dunyosida tarjimaning ko‘pgina ma’nolari mavjuddir, ular tarjimaning ijtimoiy hodisa ekanligi, matn tarjimasi tarjimaning asosi va yana bir ma’nosi tarjimaning ishlab chiqaruvchiligi ya’ni barchaga ma’lum bo‘lgan ma’no ‘tarjimonlik xizmati’ kabilardir. Tarjima jarayoni ikki bir biriga umuman o‘xshamaydigan tillar o‘rtasida yozma matnning tarjimasi sifatida tushuniladi (ST text Eng. AM asaliyat matni Uzb.) , asliyatda va verbal tilda esa, (SL source language Eng. yoki AT asliyat tili Uzb.), yozma matnga esa (TT target text Eng. yoki AM asilyat matni Uzb.) har xil tillar o‘rtasidagi ijtimoiy holat tushuniladi. Masalan: Agar biror bir matnni yoki asarni O‘zbek tilidan Ingliz tiliga tarjima qilsak, bu holatda ST yani AM asliyat matni bu O‘zbek tili TT esa yani TM tarjima matni bu Ingliz tili hisoblanadi. Bunday turdagi tarjima tillar aro tarjima deyiladi, va tarjimaning uchta kategoriyalaridan birini Rus- Amerikalik strukturachi Roman Jeykebsn (1896-1982) o‘zining Tarjimaning lingvistik aspekylari qo‘llanmasida quyidagicha ta’riflaydi. Jeykebning kategoriyasi quyidagicha: Tillararo tarjima bu boshqa bir tildagi matnni tarjima tili birliklari orqali to‘g’ri tanlanishi va berilishidir.

Tarjima to‘g’risidagi ma’lumotlar uzoq tarixga borib taqaladi. Tarjima amaliyotining qadimgi zamondagi asosiy bajargan vazifasi bu madaniy va diniy ma’nodagi matnlarni tarjima qilish va ularni tarqatishdan iborat bo‘lgan. G’arbda tarjimaning turli xil ko‘rinishlari Sitseron va Goratsiylar tomonidan ishlatilgan (eramizdan avvalgi birinchi asr) ular qatorida Avliyo

Jeroumni(eramizning tortinchi asri) ham olib borgan ishlarini koʻrishimiz mumkin. Biz bilamizki ularning tarjima toʻgʼrisidagi nazariyalari tarjima sohasida betakror manbaa sifatida yigirmanchi asrgacha qoʻllanilgan. Iloh Jeromning Grek Septuaginta Bibliyasining Lotin tiliga tarjima qilinishi Bibliyaning tarjima qilinishiga turtki boʻladi. Gʼarbiy Yevropada Bibliyaning tarjimasi minglab yillar davomida koʻpgina bahslarga sabab boʻlgan, va ayniqsa bu bahslar oʻn oltinchi asrdagi Reformatsiyaga sabab boʻlgan . Xitoyda esa Budda sutralarining tarjimasi eramizning birinchi asridan tarjima xususida koʻpgina bahslarga sabab boʻlgan. Tarjima yigirmanchi asrning oxirrogʼlariga kelibgina oʻz qolpiga ega boʻla boshladi. Bundan oldin tarjima bor yogʼi til oʻrganish yoʻnalishi sifatida yuritilgan. Oʻn sakkizinchi asrning oxiridan to 1960- yilgacha va undan keyinroq ham oʻrta maktablarda gramatik tarjima sifatida maʼlum boʻlgan. Klassik Lotin tiliga, Yunon va albatta zamonaviy chet tillariga asoslangan ushbu soha tillar gramatikasini chuqurroq oʻrgangan. Qonun qoidalar tarjima orqali tekshirilgan, yaʼni gaplarning tuzilishining toʻgʼri kelmasligi va toʻgʼri tarjima birligining berilishi va boshqalar. Ushbu uslub bugungi kunda ham uchraydi va qoʻllaniladi. Tarjima sohasi koʻproq tanilgan toʻrtta yoʻnalish mavjud. Gap shundagi ushbu toʻrt yoʻnalish tarjimaning amaliy yoʻnalishi va unda olib boriladigan faol izlanishlarni samarasini belgilaydi. Boshida tarjimaga boʻlgan talab juda yuqori edi va bu oʻzidan oʻzi tarjima sohalarining kengayishiga olib keldi, ushbu iqtisoslashgan loyihalar ham bakalavr yoʻnalishidagi talabalar ham magistrlar uchun. Minglab talabalarni oʻziga jalb etayotgan loyihalar, ularni kelajakda professional tarjimonlar boʻlib yetishishlariga va har sohadagi tarjimada ustasi farang boʻlib yetishishlariga juda yaxshi imkoniyatdir.

Tarixdan maʼlumki, tarjimaning har bir turi u hoh yozma hoh ogʼzaki boʻlsin umum insoniy aloqalarni mustahkamlashda juda muhim rol oʻynagan. Dunyoda tovar ayirboshlash qanchalik rivojlangan boʻlsa, tarjimaning muhimlik darajasi ham shunchalik rivojlandi. 2008 –yilga kelib Yevro Ittifoqda tarjima

va tarjima sanoati 5.7 milliard yevroni tashkil qildi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki tarjima fan sifatida 20-asrning 2-yarmida o'qitila boshlandi. Ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda ushbu termin 'tarjima ilmi' sifatida tanilishiga AQSHlik Niderland olim Jeyms S. Holms (1924-1986) sababchi bo'lgan. Undan rashqari Holms o'zining 1972 yildagi kalit so'zlar to'plamida tarjima va uning muammolarini noodatiy holat deya klastr sifatida tasvirlagan, ammo uning ushbu to'plami 1988 yildagina keng ommaga ma'lum bo'lgan. (Holms 1988b/2004:181) 1995-yilga kelib uning Tarjima Ilmi nomli ikkinchi to'plami: ushbu birlashtirilgan to'plamda tarjima ilmining hayratlanarli darajadagi rivoji va xalqaro miqyosdagi muhimlik darajasi' (Snell-Honbi 1995, kirish qismi) to'g'risida so'z borgan. Mona Beyker Holmsning 1-ishiga yozgan kirish qismida shunday deydi (Beyker va Melmker 1998:) tarjimaning yangi bosqichdagi rivoji balkim 1990-yildagi olimlar ishiga turtki bo'ladi deb aytaolamiz. 2008-yilga kelib Insiklopediyaning 2-to'plamida o'sha taxminlar qay darajada to'g'riligini ko'rdik. Bunda yangi javobi topilishi kerak bo'lgan savollar ko'p jihatli oldinga qoyilgan maqsad va vazifalar oldingi rivojlanish bosqichlariga Yevroga tegishli bo'lgan birlashmalar bilan bog'liqdir (Beyker va Saldana 2009:) Tarjima har qanday madaniy diplomatik aloqalar; insonlar o'rtasidagi bir ikkita tushunarsiz bo'lgan narsalar adabiyot va intelektual odatlar; biror bir davlatning kuchli bo'lmagan adabiyotidagi biror bir yo'nalishi sisosatchilarning to'gri siyotsatlari orqali boshqa bir mamlakatning adabiyoti va albatta tarjima orqali boyitib borilishi mumkun.

AQSH ni misol sifatida oladigan bo'lsak uyerda tarjima materiallari uncha ko'p chop etilmaydi (faqatgina 1 yil mobaynida chop etiladigan kitoblarning 3% nigina tashkil etadi) gap shundagi Amerikaliklar adabiyot, falsafa va boshqa ruhiy holat bilan bogliq bo'lgan masalalar bilan uncha qiziqishmaydi. Boshqacha qilib aytganda, tarjima madaniyati chet el materiallariga bevosita bog'liqdir, chunki tarjima ishlari keng auditoriyadagi o'quchilar tomonidan o'qilishni talab qiladi. Shunday qilib biz bemalol

tarjimani muhimlik darajasini dunyo miqyosida juda muhim va baland deb aytaolamiz. Yozma matnlarning o‘rni ushbu holatda beqiyosdir deb ta’kidlaydi Niderland jamiyatshunosi Abram de Svon, uning fikricha yozma tarjimaning beqiyosligi shundaki boshqa bir madaniyatni anglash uchun siz albatta o‘sha madaniyatning kitoblarini o‘qishingiz lozim deya aytib o‘tadi. Badiiy tarjima esa ushbu madaniyatlarni o‘rganishdagi madaniy xilma-xillikdir bu esa juda muhim jihat. Umberto Ekoning fikricha Yevropa tili bu tarjimadir. Yevropa Ittifoqi badiiy tarjimaga katta etibor beradi ammo badiiy tarjimonlarga emas. Har yili Yevro Ittifoq tomonidan ma’lum bir tarjima loyihalariga 2mln yevro miqdordagi grant ajratadi. Ushbu ta’minot chop qiluvchilarga yetib boradi tarjimaning haqiqiy yaratuvchilariga emas. Namunaviy bozor uslubida tarjimonning ishi uning bilim darajasiga qarab baholanadi, bunda yana tarjimin ishining sifati, qancha vaqtda ishning bajarilganligi va shunga o‘xshagan belgilar orqali muharrirlar iqtisodiy subsidiya sifatida tarjimonlarga shartlar qoyadilar.Gap shundaki aslida namunaviy bozor uslubi ishlamaydi. Badiiy tarjimonlar tarjima bozorida unchalik ko‘p talab etilmaydilar, umuman olganda ularga bo‘lgan talabni yo‘q deb ham aytaolamiz. Bunga sabab tarjima ishidagi ko‘rinmaslik xususiyatidir: ya’ni tarjima ishida biz tarjimonning artistik mahoratini ko‘raolmaymiz, ommaviy ishlarda ham huddi shunday chunki badiiy tarjimonlar namunaviy tarjima bozoriga kirish imkoniyatiga ega emaslar. Ushbu muammoning sababi badiiy tarjimaning asrliligi va u bo yog’I odamlar qo‘lida oddiy kitob sifatida qolib ketishidir, ushbu muammo 1970-yillarigacha ommaviy bo‘ldi o‘sha yilda yuqori rivojlanishda bo‘lgan kitob bozori talabiga binoan professional badiiy tarjimonlarga bo;lgan talabni kuchayishiga sabab bo‘lishdi.

Shunday qilib, tarjimonlar mualliflik huquqi doirasida badiiy ishlarning yaratuvchilariga aylanishadi va ular huddi haqiqiy mualliflar kabi ishlaridan rohatlanishadi, ularning har kunlik chop etish amaliyotida ular ozmi ko‘pmi almashiniladilar. Tarjimonlar madaniyatlar aro eng muhim

koʻprikdirlar, ammo tarjimonlik bozorida ularga qora ishchi sifatida qarashadi; ular byudjetning oxirgi oʻrinida turishadi. Ammo bu hol Yevropa mamlakatlarining 23 tasida bekor qilingan, ushbu 23ta davlatning 20 tasida badiiy tarjimonlarning oʻrtacha taminlov darajasi 60%dan ham kam hisoblanadi ushbu 23 davlatdan 14tasida ushbu koʻrsatkich 50%ni ham tashkil qilmaydi. Badiiy tarjimonlar va boshqa ijodkorlarning olaydigan toʻlovlariningfarqi shundaki: tarjimonlar tarjima qilganlari uchun olishadi xolos va ushbu toʻlov unchalik katta emas. Bir xil davlatlarda mualliflik toʻlovi qolgan t'olovlarga qarab beriladi, lekin foiz shunchalik kamki u arzimagan toʻlovni tashkil etadi.

Badiiy tarjimonlik faoliyati qiyin va faoliyatni baholovchi toʻlov ham katta emas. Badiiy tarjimonlar juda katta bosim ostida faoliyat olib borishadi. Hayratlanarlisi shundaki ishlab chiqarishi past koʻrsatkichli mamlakatlarda tarjimonlarga kam rag'badlantirish puli beriladi, agar misol sifatida oladigan boʻlsak ishlab chiqarish boʻyicha yuqori oʻrinlarda turadigan Niderlandiyada Yevropa mamlakatlari oʻrtasida eng kam rag'batlantiruv beriladi. Badiiy Tarjima sohasidagi muammo katta muammo hisoblanadi, ammo Yevropa Birlashmasiga buni qizig'i yoʻq. Shuning uchun ham Madaniyat, Ta'lim va Audiovisual Agentligi boʻlayotgan muammoli vaziyatlarga jiddiy qaramoqda.

Agar Yevropa ittifoqi madaniy va ma'rifiy almashinuvni istasa ushbu yoʻnalishga yaxshiroq etibor berishi kerak. Badiiy tarjima bu oddiygina san'at emas balki madaniy birlikdir: u bizning infrastrukturamizdir. Shuning uchun ham, adabiyot boshqa madaniy loyihalardan farqlanib turishi lozim, uning alohida oʻziga tegishli moliyasi boʻlishi lozim. Siyosat esa oʻz oʻrnida ushbu tarjimonlarni har doim har taraflama qo;llab quvvatlab turishi va ularning hozirgi madaniyat va ma'naviyatdan xabardor etib tturishlari lozim.

Alohida e'tibor tarjima markazlariga qaratilishi darkordir, chunki uyerda kam haq to;lanadi lekin yuqorida aytib oʻtilgan maqsadlarga erishishga eng maqbul yoʻldir. Koʻpgina mamlakatlarda hozirgi kunda bir

ikkita shunaqa markazlar faoliyat olib boradi. Shunday markazlarda tarjimonlar o‘z tarjimalari ustida ishlashadi, (ba’zida tarjima qilinayotgan asarning muallifi bilan birgalikda), kutubxonalarda izlanishlar olib borishadi, boshqa davlat tarjimonlari bilan fikr, bilim va tajriba almashishadi, bu esa o‘z o‘rnida tarjimonlarga o‘zlari o;rgangan chet tilini yanada bilish darajasini oshirishlariga va o‘sha tilning milliy madaniy qarashlarini to‘liq anglashlariga juda yaxshi imkoniyat bo‘ladi. Shunday loyihalarda Yevropa Ittifoqida tarjimonlar uchun alohida bir yillik grant ishlab chiqildi va unga YevroIttifoq madaniyat byujetidan 9% mablag’ ajratildi. Undan tashqari ushbu loyihadan keyin ham tarjima markazlarida unchalik yaxshilanmadi chunki uyerdagi ahvol rosrdan ham unchalik yaxshi emas edi, ular o‘z yo‘nalishlarida ishlarini davom ettirishlari yoki ishlarini yanada rivojlantirishlariga sharoit yaratilmagan.

Biz qisqacha tarjima va tarjimonlarni moliyaviy jihatdan qo‘llab quvvatlamaslik qanday holatdalogini ko‘rib chiqdik. Hozir quyida badiiy tarjima va badiiy tarjimonlarga qisqacha ta’riflarni ko‘rib chiqamiz:

1) Badiiy tarjima umuman olganda tarjimaning bir qismi emas balki adabiyotning bir bo‘lagidir; badiiy tarjimonlar esa oddiy tarjimonlar emas balki to‘laqonli mualliflardir.
2) Badiiy tarjima har qanday madaniyatning o‘rtasidai bog’lovchi nuqtadir, bu nafaqat adabiyot balki sa’atda ham u xoh teatr, xoh kino yoki boshqa san’at turi bo‘lsin badiiy tarjimaning o‘rni beqiyosdir. Shunga ko‘ra maadaniyatlar aro aloqalar, yangiliklarni yaratish va ularni yetkazish badiiy tarjimaning sifatiga borib taqaladi.
3) Badiiy tarjimaning sifati bevosita badiiy tarjimonlarning tarjimonlik mahoratiga va sifatli badiiy tarjimani amalga oshirish qobiliyatiga bog’liqdir. Lekin hozirgi kunda badiiy tarjimaga bo‘lgan talaab unchalik yuqori bo‘lmaganligi tufayli unga yetarli e’tibor berilmayapti, undan tashqari agarda tarjimonlarga tarjima qilinayotgan tillari aloqador bo‘lgan madaniyat o‘choqlariga tashriflarni amalga oshirish imkoniyatiga

moliyaviy jihatdan ega emaslar. Sifatli badiiy tarjimani malga oshirish uchun undan tashqari tarjima asarning muallifi bilan uchrashish va boshqa mamlakatlardagi kasbdoshlari bilan uchrashuvlar seminar mashg'ulotlari va albatta master klasslarni kuzatib borishlari lozimdir.

4) Yuqoridagi ishlarni amalga oshirish uchun alohida e'tibor va qo‘llab quvvatlanish darkordir bu albatta moliyaviy masalarga borib taqaladi.
5) Agar badiiy tarjima va uning yuqori darajadagi rivoji ko‘zlansa unda u albatta iqtisodiy jihatdan qo‘llab quvvatlanishi lozim, shunday qo‘llab quvvatlanishga Yevropa Ittifoqi miqyosidagi katta bir loyihani misol qilib aytib o‘tishimiz mumkin, ushbu loyiha 2007-2013- yillarda kino sa'noatiga ajratilgan moliyaviy yordam ko‘rinishida edi.
6) Undan tashqari badiiy tarjimonlarni o‘zlari tanlagan kasblariga sodiq qolishlari uchun ham ularga ilhom va albatta yaxshi ishlash sharoiti lozimdir, bunda tarjimaga asoslangan til kurslari, ayniqsa uncha ommaviy bo‘lmagan tillar o‘rtasida, bu albatta faqatgina professional tarjimonlar o‘rtasidagina emas balki talabalar, tarjimonlik faoliyatini boshlash arafasida turgan yosh tarjimonlar o‘rtasida tashkil etish lozimdir bunda tajriba almashuvlarining o‘rni ham beqiyosdir.

Agar tarjima yoki uning tarixi xususida Ozbekiston misolida oladigan bo‘lsak XXI asr tom ma'noda mustaqil O‘zbekiston Respublikasi uchun rivojlanish va yuksalish asri bo‘lib boshlandi. Yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar bundan darakdir. Vatanimizning chekka xududlari ham bugun zamonaviy shahar ko‘rinishini olmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan yo‘lga qo‘yilgan namunaviy loyihadagi uy-joylar qurish dasturi shahar va qishloqlarimiz ko‘rkini yanada ochib yubordi. Yoshlar uchun yaratilayotgan keng ko‘lamli shaaroitlar ularning iqtidorini nomoyon etishlarining asosi bo‘lmoqda. Shaxsan Prezidentimiz rahnomoligida chet tillarni o‘qitilishining rivojlanishi soha mutasaddilari oldiga keng qamrovli vazifalarni qo‘ymoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan 2012-yil 10-dekabrda «Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g'risida»gi PQ-1875

sonli qarori imzolandi. Qarorga koʻra, 2013-2014 oʻquv yilidan boshlab Oʻzbekistonning barcha hududlarida chet tillarni, asosan, ingliz tilini oʻrganish umumtaʼlim maktablarining 1-sinflaridan boshlandi. Yosh avlodning chet tillarni oʻrganishga boʻlgan iqtidori va qiziqishi oʻtgan bir yil davomida yaqqol koʻzga tashlandi.Oliy oʻquv yurtlarida esa ayrim maxsus fanlarni, xususan, texnik va xalqaro mutaxassisliklar boʻyicha oʻqitish chet tillarda olib borish rejalashtirilmoqdai. 2013-2016 yillar davomida taʼlim muassasalaridagi xorijiy tillar kabinetlari zamonaviy axborot-kommunikatsiya va oʻqitishning texnik vositalari va anjomlari bilan qayta jihozlanadi.

Qarorda Davlat test markazi 2015/2016 oʻquv yilidan boshlab esa barcha oliy taʼlim muassasalariga kirish testlari blokiga xorijiy tilni kiritish boʻyicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish boʻyicha tegishli koʻrsatma berilgan. Yaʼni, abiturientlar institut-universitetlarga kirishda chet tilidan, asosan, ingliz tilidan test topshirishlari majburiy qilib belgilanadi.

Qarorga koʻra belgilangan tartib boʻyicha, chet tillar oʻqituvchilariga ehtiyoji boʻlgan uzoq tumanlar va qishloq aholi punktlarida yashayotgan aholi ichidan mahalliy davlat organlarining tavsiyanomalari asosida chet tillari oʻqituvchilarini tayyorlaydigan oliy taʼlim muassasalariga maqsadli qabulni amalga oshirishga ruxsat beriladi. Tavsiyanoma bilan oʻqishga kirganlar, tavsiyanomada koʻrsatilgan taʼlim muassasasida 5 yildan kam boʻlmagan muddatda ishlab berishlari shart.

Shuningdek, qarorda chet tillar oʻqituvchilari va muallimlarini moliyaviy ragʼbatlantirish chora-tadbirlari ham koʻrsatib oʻtilgan. Unga koʻra, qishloq joylarda ishlaydigan chet tillar oʻqituvchilarning tarif stavkalariga 30 foiz, boshqa taʼlim muassasalarida 15 foiz stavkalari miqdorida har oydagi qoʻshimchalar berib boriladi. Bu borada Vazirlar maxkamasi xuzuridagi Davlat test markazi oʻrta maktablar oʻqituvchilari uchun maxsus malaka testlarini oʻtkazdi va undan oʻtgan oʻqituvchilar yuqoridagi ustama xaqlarini olmoqdalar.

Qarorga koʻra, ikkita yangi tuzilma tashkil etildi: Chet tillarni oʻrganishni yanada rivojlantirish boʻyicha doimiy ishlaydigan Muvofiqlashtiruvchi kengash

chet tillarni o‘rganish bo‘yicha ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari uchun javobgar bo‘lsa, Davlat Test markazi tarkibida tashkil etilgan 12 nafar xodimdan iborat Chet tillarni bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasi chet tili bo‘yicha bilim darajasini baholash imkonini beradigan test va boshqa shu kabilarni ishlab chiqish va hakozolar bilan shug‘ullanmoqda.

Bundan tashqari, qarorda O‘zMTRK va boshqa tegishli tashkilot hamda idoralarga ham bolalar va o‘smirlarni xorijiy tillarga o‘rgatish bo‘yicha ko‘rsatuvlar tayyorlab efirga uzatilmoqda. Mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod chet tillari o‘quvchilari, umumta’lim matkablarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 5 mingdan ko‘proq lingafon kabinetlari jihozlandi.

Prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida ta’kidlanganidek, “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatimizni safarbar etayotgan ekanmiz bu borada ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubxasiz beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada xushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga o‘zi bilarchilarchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g’irilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib oxir oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishi mumkin”.Yurtboshimiz o‘rinli tahkidlaganlaridek: “Keyingi yillarda milliy adabiyotimizning eng yaxshi namunalarini chet tillarga tarjima qilish va shu asosda xalqimizning hayot tarzi va insoniy fazilatlarini keng namoyish etish borasida ham katta imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda. Lekin, afsuski, bu masalada biz hali-beri ko‘zga ko‘rinadigan amaliy natijalarga erisha olganimiz yo‘q. Ilgari o‘zbek adabiyotining namunalarini boshqa tillarga tarjima qilish asosan uchinchi til, ya’ni rus tili orqali amalga oshirilar edi. Bu borada qilingan katta ishlarni munosib baholagan holda, endilikda adabiyotimizning eng yetuk asarlarini bevosita ona tilimizdan g’arb va sharq tillariga tarjima qilishga qaratilgan ishlarni kuchaytirishimiz zarur”. [1,139].

Insoniyat tarixini barcha bosqichlarda badiiy adabiyot san’at turlarining biri sifatida ijtimoiy taraqqiyotda katta o‘rin egallab, faol rol o‘ynab kelgan. Buning sababi shuki, badiiy adabiyot ijtimoiy ong shakllaridan biri ekanligidir. Adabiyotning eng asosiy vazifasi insonshunoslikdir. Haqiqatdan ham , badiiy asarda tasvirlangan har bir obraz bevosita inson yoki inson bilan bog’liq narsa va hodisalardan iboratdir. Bundan kelib chiqadigan muhim xulosalardan biri shuki, agar badiiy asarda inson tasvirlanmas ekan, bunday asarlar haqiqiy ma’nodagi badiiy adabiyot namunasi hisoblanmaydi.

Tarjima – forscha “tarzabon” so‘zidan arabiylashib, o‘zgargan (“tarzabon” – chiroyli so‘zlovchi, notiq, tili burro kishi). Arab tilidagi “tarjimon” shaklida qabul qilingan, undan “tarjima” yoki “tarjuma” hosil bo‘lgan. O‘zbek adiblari bunday tushunchani “chevirish”, “o‘tkazish”, “qaytarish”, “ag’darish”, “o‘girish” singari atamalar bilan ifoda etadilar. Ko‘p yillar davomida “tarjima” [6, 55]. sharh, tafsir, bayon qilish, tushuntirish ma’nolarida ham qo‘llanib kelingan.

Umuman, tarjima deganda bir tilda yozilgan matn yoki aytilgan nutqning boshqa tilda qayta yaratilishi tushuniladi. Shu ma’noda tarjima xalqlar, millatlararo aloqa vositasi hisoblanadi. Tarjima hozirgi jamiyatimizning juda ko‘p sohalarida amalda qo‘llanilmoqdaki, bugungi kunda usiz taraqqiyotni tassavur qilib bo‘lmay qoldi. Ayniqsa, axborot almashinuvi o‘ta yuqori tezlik bilan amalga oshirilayotgan bugungi tezkor zamon tarjimonlarni anchagina shoshirib qo‘ymoqda. Tan olishi kerak, bugunga kelib badiiy adabiyot sohasidan ko‘ra ko‘proq fan-texnika, iqtisodiyot va siyosatga oid yangiliklar tarjimasiga ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Badiiy tarjimaga rag’bat nisbatan susaygandek tuyuladi.

O‘zbek adabiyoti asarlarini jahon xalqlari tillariga tarjima qilib tarqatishda katta xizmat ko‘rsatgan barcha ijod ahli chuqur hurmatga sazovor. Bular orasida“Boburnoma”ni ingliz tiliga o‘girish bilangina cheklanmay, uni atroflicha ilmiy sharxlagan, og’ir ijodiy ishni jiddiy tadqiqot bilan qo‘shib olib borgan tarjimonlar Jon Leyden, Uil yam Erskin, Anetta Beverij xonim va boshqalar, ushbu asarni fransuz tiliga o‘girib nashr ettirgan, tanishtirgan Alfred Kurella, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan Kunlar” romanini nemis tiliga tarjima qilgan N.Tun,

“Alpomish”ni slovak tiliga o‘girgan Yan Komorovskiy kabi yuzlab tarjimonlarning qutlug’ mehnati o‘zbek adabiyotining do‘stilk sahifalariga zarhal harflar bilan yoziladi.

Badiy asarlarning o‘zbek va rus tillariga o‘girishda L.M.Penkovskiy, Vl.Derjavin, S.Lipkin, M.Salye, K.Simonov, S.Marshak, N.Gribachev, N.Ivashev, YU.Karasev, N.Vladimirova, Z.Tumanova, S.Somova va boshqa yozuvchi shoir, tarjimonlarning xizmati katta.

Jahon adabiyotining, jumladan rus va boshqa xorijiy adabiyotlarning eng sara kitoblarini o‘zbek tilida qayta yaratishda Oybek, G’ofur G’ulom, Ismoiliy, Asqad Muhtor, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Jamol Kamol, Muhammad Ali, Abdulla Sher, Shavkat Raxmon va boshqa ijodkorlarning tarjimonlik mahorati maxsus ilmiy tadqiqotlarda yaratilishiga muhtoj.

1.2. Badiiy tarjimada milliylik muammosining berilishi

Muayyan bir xalq, millat va elatga xos tushuncha, narsa va hodisalarni aks ettiradigan lisoniy vositalar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi [7, 89]. Demak, har qanday badiiy-g’oyaviy barkamol asar o‘zida birday ham baynalmilallikni, ham milliylikni mujassam etishi bilan ajralib turadi. Baynalmilallik asarning mazmuni va g’oyasi, milliylik esa uning shaklida namoyon bo‘ladi. Badiiy asarning shakli qator jihatlari bilan birga uning tilini, xususan lug’at tarkibini o‘z ichiga oladi: asarning milliy xususiyati asosan leksik va frazeologik birliklar yordamida yaratiladi. Baynalmilallik bilan bir qatorda milliylik xususiyatini ham o‘zida mujassam etgan tilning lug’at tarkibi o‘zi mansub bo‘lgan til jamoasining moddiy-ijtimoiy hayotini, chunonchi, milliy urf-odat va an’analarini, geografik tasavvurini, ma’naviyati va dunyo qarashini, diniy e’tiqodini, axloqiy me’yorlarini, tafakkur yo‘nalishini moddiy aks ettiradi. Tillar orasidagi tafovut esa odatda bir xalq moddiy hayotida mavjud muayyan tushunchalar, voqea-hodisalar, urf-odatlarning ikkinchi xalq turmush tarzida uchramasligi, shu tufayli ular nomlarining ham ayni xalq tilida tabiiy ravishda yo‘qligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, lug’aviy ekvivalentlik munosabatida bo‘lgan ayrim ikki til juftliklari bir-birlaridan biror xususiyatlari bilan o‘ziga xos

ravishda farq qilishlari mumkin. Bu hol til birliklarining milliy xususiyatini belgilash baravarida ularning tarjimada o‘zaro almashinuvlariga to‘sqinlik qiladi. Asliyatning o‘ziga xosligi asosan uning tarkibidagi lisoniy vositalarning milliy xususiyati bilan belgilanar ekan, asliyatning badiiy-g’oyaviy zaminini asliymon tiklash asarning milliy bo‘yog’ini qayta yaratish bilan bog’liqdir. Shuning uchun ham tarjimada milliy xususiyatni tiklash masalasi keyingi payitlarda tarjimonlarning ham, tarjimashunoslarning ham e’tiborini o‘ziga borgan sari ko‘proq tortib kelmoqda. Chunki tarjimaviy nuqsonlarning ko‘pchiligi milliy xususiyatni aks ettiradigan til vositalari ulushiga to‘g’ri kelmoqda. Zero, tarjima amaliyotida hanuzgacha yo‘l qo‘yib kelinayotgan xato va kamchiliklarning ko‘pchiligi tarjimada milliy xususiyatni tiklash bilan bog’liq bo‘lib, bu masala hanuzgacha nazariy jihatdan ham, amaliy xususdan ham qoniqarli darajada hal qilingan emas.Ilmiy adabiyotda xalqlar turmush tushunchalarini ifoda etadigan leksik birliklarni qaysi paytlarda tarjima amaliyotining qanday sinalgan usullari vositasida talqin etish lozimligi haqida yagona fikr uchramaydi. Tarjimaning ijodiy jarayonligi tufayli, bunday fikrning uchrashi ham goho amri mahol. Biroq bayon etilgan ilmiy-tanqidiy fikr-mulohazalar tarjimonning muayyan holatda qanday yo‘l tutishi lozimligi haqidagi tasavvurini boyitadi, uning amalda yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan turli-tuman tasodifiy tugunlarni echishga ko‘maklashadi, unda amaliy mushkulotlarni mohirona engish malakasi hosil qilinadi. Bunday, kishilar turmush tushunchalarini anglatadigan xos so‘zlarni tarjimada adekvat talqin etish asl nusxa milliy xususiyatini kitobxonga to‘la-to‘kis etkazib berishdek murakkab muammoning eng mas’uliyatli va o‘ta mushkul masalalaridan hisoblanadi. Zero, bunday holda tarjimon oldida o‘z xalqi uchun notanish, binobarin, nomlari ham tilda mavjud bo‘lmagan tushuncha, narsa va hodisalarni tarjima tili sohiblariga to‘la anglatish vazifasi ko‘ndalang bo‘lib turibdi.

O‘zbek tilida odam tana a’zolarining nomlari juda ko‘p hollarda turli ma’no anglatuvchi iboralar tarkibida asosiy unsur vazifasida keladi. Masalan, “bosh” so‘zi quyidagi hollarda asosiy obraz yaratuvchi so‘z sifatida birikmalar tarkibida keladi: bosh chayqamoq, bosh tortmoq, bosh qo‘shmoq, boshi ochiq, boshidan oyoq,

boshga koʻtarmoq, boshi bilan shoʻngʼimoq, boshi aylanmoq, boshini aylantirmoq, boshiga etmoq, boshiga urmoq, boshga qilich kelsa ham, boshida danak (yongʼoq) chaqmoq, boshidan oshib yotmoq, boʼynidan soqit qilmoq, boshi yostiqqa etmoq, boshi koʻkda (osmonda), boshini ikkita qilmoq, boshini bir joyga qovushtirmoq, boshini biriktirmoq, boshini olib ketmoq, bosh koʻtarmay, bosh koʻtarmoq, bosh ogʼrigʼi, bosh(i) qotmoq, boshi oqqan (tomonga), bosh suqmoq, bosh egmoq. Soʻzning ingliz tilidagi muqobil ekvivalenti boʻlmish "head" soʻzi ham juda koʻp vaziyatlarda turli-tuman vazifalarda keladi. Oʻzbekcha "bosh" va inglizcha "head" soʻzlarinig turli iboralar tarkibidagi vazifalari bir biridan tubdan farq qiladi. Fikrimizni isboti sifatida quyidagi misollarni koʻrib chiqamiz.

HEAD-BOSH - to bare one's head bosh kiyimni yechmoq, to bow one's head bosh egmoq, to drop, hang, lower one's head yerga qaramoq, to lift, raise one's head boshni koʻtarmoq (tepaga qarash maqsadida), to move one's head bosh chayqamoq, to nod one's head bosh chayqamoq, to shake one's head eʼtiroz bildirmoq, to toss one's head boshini shartta burmoq, to hold one's head high faxrlanmoq, from ato foot/heel, head to foot boshdan oyoq, taller by a head boshdan baland, a good head, strong head aylanmaydigan bosh (ichib mast boʻlmaydigan), a good head for heights balandlikda aylanib ketmaydigan bosh, a bad head for heights balandlikda aylanib ketadigan bosh, win by a head b) bosh ogʼrigʼi (asosan zarba va alkagol taʼsirida) I get one of those blinding heads. Meni bosh ogʼrigʼi qiynayapti. She was lying down with a head. U boshi ogʼrigani tufayli yotgan edi. aql, intellekt, aqliy qobilyat (layoqat), to use one's head fahmi yetmoq, kallasi ishlamoq, tushunmoq; to cram, fill, stuff smb.'s head (with nonsense) biror kimning boshini mayda-chuydalar bilan toʻldirmoq, accounts which he kept in his head xisob-kitoblarni miyada saqlamoq; to have a (good) head (up)on one's shoulders yelkada aqilli boshni koʻtarib yurmoq; to have an old head on young shoulders sogʼlom fikrlovchi; It is not your fault that you have no head for politics. (G. B. Shaw) .Siyosatni tushunmasligingiz aybingiz emas. to keep a level head, keep one's head tinchlikni saqlamoq; to lose one's head tinchini yoʻqotmoq, cool head, level head sovuqqon, bosh hayot uchun muhim tana aʼzosi

sifatida; Proofs enough against this scoundrel, Fritz, to cost him his head. bosh tasviri a head of Titian by his own hand tanganing old tarafi (bosh tasviri tushirilgan), head(s) or tail(s) chikka pikka (tangani otganda) Heads I win, (and) tails you lose. Har qanday vaziyatda men yutaman.; Har qanday vaziyatda sen yutqazasan. yoki pochta markasi (monarx rasmi tushirilgan) soch (boshdagi) I comb'd his comely head. no‘xta, hayvon boshiga maxkamlanadigan tasma Syn: headstall kiyik shoxi odam Those wise heads came to the conclusion that there was hope. O‘sha donishlar umid bor degan hulosaga kelishdi. He's a hot head. sanoq birligi (odamlarni sanashda ishlatiladi) - per head v) chor va boshi fifty head of cattle ellik bosh chorva jonivorlarning noaniq soni Shooting tenants ought to be obliged to wire-in their woods where they kept a large head of rabbits. narkoman (morfin ta’sirida o‘tirgan kishi);

Narsaning tepa qismi, asbobning uradigan yoki kesadigan qismi, ruchkadan tashqari, (nayza yoki yoyning uchi.), (pichoq), (bolta), shlyapacha (mix, bolta,), (to‘g’nog’ichning boshi), shlyapacha (qo‘ziqorin), urug’ qutichasi (daraxt) ko‘pik, (ayniqsa pivo ichimligida) qaymoq (sutda) yuqori qism betning boshlanishi, sarlavha. Heading - Scare-heads three inches high announced that the champion athlete was at death's door. — Qo‘rqinchli gazeta sarlavhalari chempionning o‘limi yaqinligini xabar berardi. Headline – sarlavha, come to a head — biror to‘xtamga kelmoq, biror narsaning yuqori qismi, ko‘lning bir qismi, daryoning kelib quyuladigan joyi;yaylovning eng baland nuqtasi,stolning tarafi, odatda uyning egasi o‘tiradigan joy. I was offered the seat at the head of the table. — Menga stolning to‘rinini taklif etishdi. Daryoning boshlanishi. The head of the Mississippi River is in Minnesota. — Missisipining boshlanish nuqtasi Minisota shtatidan keladi.. Source , origin , beginning - suyuqlikning kuchi, to‘siq (suvni to‘sib turadigan) head of water — suvning qanchaligi va balandligi, katta to‘lqin, (bosh qismi old qismi) bosh qismi. The tallest boy stood at the head of the line. — Eng uzun bola oldingi qatorda turardi.. Biror narsaning oldingi qismi, kemaning oldingi qismi - by the head - down by the head - xojatxona, (sohilda) (zamonaviy geografik nomlarda ishlatiladi) Syn: cape , headland , promontory boshliq xo‘jayin

head — boshliq, direktor department head, head of the department — boshqarma boshlig'i, bo'lim boshlig'i the head of the house of Mendoza — Mendoza uyining boshlig'i.At the head of — boshchiligida The studious girl graduated at the head of her class. — Eng yaxshi o'qiydigan o'quvchi qiz hamma sinfdoshlaridan yaxshi baholarga makatbni tomomladi. It might bring things to a head, one way or the other. — Ushbu holat inqirozni keltirib chiqorishi mumkin. When will the crisis come to a head? — Qachon inqiroz tugatilish vaqtiga keladi? But it is time to draw to a head this somewhat lengthened discussion. — Ushbu muammoning yechimini topadigan vaqt keldi.

do it on one's head – biror bir narsani osonlik bilan bajarmoq. Right, old boy. Leave it to me. I can do this on my head. — Bo'pti qariya. Buni menga qoyib bering. Men uchun bu hech narsa emas.

out of head – boshidan Were not all these answers given out of his own head? — U bu savollarni o'zi o'ylab topmaganmikan? es hushini yoqotmoq to go out of one's head — aqldan ozmoq

over head – boshining yuqorisidan a roof over their heads — ularning boshpanasi.

over smb.'s head – birortaning boshidan yuqori bo'lmoq He had been chosen for promotion over their heads. — U ularning boshlaridan yuqoriga ko'tarilgan edilar.

over one's head – nimadandur yuqori bolmoq, ponimaniya talking over the heads of the company — kompaniya boshliqlari to'g'risida gapirgan holda

go to smb.'s head – boshni urib olmoq (omad haqida)

by the head and ears – qo'pollik bilan zo'ravonlik bilan

over head and ears – butunlay

head over ears – tish tirnog'igacha He was head over ears in debt when he married her. —.U unga uylqanganida tish tirnog'igacha qarzga botgan edi.

give a horse his head – qo'yib yubormoq

keep one's head above water – yuqorida zo'rg'a ushlanib turmoq, qiyinchiliklarni yengib o'tmoq

bring to a head – biror narsani hal qilish nuqtasigacha yetqazmoq. Matters have been brought to a head in the peace talks; tomorrow they will either succeed or fail. — Tinchlik sulxi oxirgi stadiyasiga yetib kelmoqda etaga uning najiasi e’lon qilinadi yoki yaxshi tomonga oki yomon tomonga.

head over heels – oyoqlarni yuqori ko‘targan holda

make head – oldinga harakatlanmoq

off one's head – umuman o‘zida bo‘lmaslik

bosh, katta head physician — bosh shifokor Syn: chief , principal , capital yuqoridagi to‘g’ridagi uchrovchi head tide, head current — uchrovchi to‘lqin head wind — yo‘ldagi uruluvchi shomol, head sea — kutib oluvchi to‘lqin boshga kiyishga mo‘ljallangan boshga tegishli head-dress — bosh kiyim to head an arrow — yoyga o‘tkir uch yasash tashkil etmoq, yuqori qismni tashkil etmoq, tower headed by a spire — yuqori qismli stansiya (murojaat ism) betning boshlanishiga boshlamoq, ochmoq’ (ro‘yxat matn) At the last general election Mr. L. headed the poll with 4,159 votes. — Saylovning oxirgi natijalariga ko‘ra janob L 4159ta ovoz toplagan holda qolgan nomzodlardan o‘zib ketdi. (dukkaklilar to‘g’risida), (karam haqida gapirganda head out, head up) This cabbage heads early. — Bu turdagi karam tez pishadi. boshlash (daryo to‘g’risida) boshchilik qilmoq boshqarmoq’ (head up) When the president died the vice president was chosen to head the firm. — Firma boshlig’ining vafotidan so‘ng uning boshqaruvi boshliq yordamchisiga topshirildi. Syn: be head of , direct , supervise , manage Yuqori pog’onalarni egallab turish., ildamlamoq, birinchi qatorda bo‘lmoq, biror narsada oldinda bo‘lmoq’ The Cambridge crew took the lead from the first, were never headed, and won by upwards of three lengths. — Kembrijning Jamoasi boshidanoq ilgarilab ketdi va uch liniya bo‘yicha hammadan oldigilar bo‘lib g’alaba qozonishdi.. Syn: lead , go at the head of , precede , lead the way , be in the vanguard , surpass , outdo , excel yo‘naltirmoq’ (biror bir tomonga) The Fram lay moored with her bow heading west. — Frem yakorda burnini g’arb tomonga qaratgan holda turar edi.. Head the boat toward shore. — Qayiqni sohil tomon yo‘naltir. Syn: face , front biror bir yo‘nalishda davom etmoq, yo‘nalishni

ushlamoq’ yo‘nalish, bormoq izma iz’ When the rain stops let's head for the picnic grounds. — Kel yomg’ir to‘xtagandan so‘ng piknk uchun tanlagan joyimizga boramiz. Syn: steer, aim Yo‘nalishda davom etmoq.He has to cover his face with a muffler, and head the driving snow. — U bo‘ronli havoda yuzini qordan himoya qilish maqsadida sharfni yuziga bog’lagan.holda harakat qilardi. halaqt bermoq (harakat head off, head back) To head my rival off I indulged in a tremendous flirtation. — Men o‘z raqibimni chalg’itish orqali uni yutishga harakat qildim. Kesib o‘tmoq bosib o‘tmoq. (ko‘lni, daryoni) It is shorter to cross a stream than to head it. — Qiyin yo‘lni qisqa va oson yo‘l orqali bosib otish. To‘pni bosh bilan o‘ynamoq yoki uriv yubormoq.

head for – erishish yetishish’ It looks as if the firm is heading for another record year! — Bizning firma bu yil record natijani qayd etsa kerak! Tavakkal qilmoq’,o‘ziga olmoq You're heading for an accident if you drive after drinking alcohol. — Agar sen mast holatda mashina haydasang baxtsiz hodisaga duch kelishing mumkun. Syn: ask for , look for

head off – oldini olish (put’); anglatish’ (hujum) to head off a quarrel — janjalni oldini olish

head out – kulminatsion nuqtasiga yetish,

head up - 1) sarlavha berish (gazeta va boshqa joylarda.) One of my jobs at the newspaper office was to head up the page before it was printed. — Men gazetada ishlaganimda maqqolalarga sarlavhalar toppish bilan shug’ullanardim. boshqarish’ Company requires capable and professional person to head up real estate department. — Firmaning ko‘chmas mulk bo‘limini boshqarish uchun mahoratli ishchi kerak.

Ko‘rinib turibdiki “bosh” so‘zining ingliz va rus tillaridagi ma’nolari o‘zbek tilidagiga nisbatan ko‘proq. Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan so‘zlar shubxasiz badiiy yodgorliklarning milliy bo‘yog’ini, uning o‘ziga xosligini tashkil etadi. Asarning milliy fazilatini belgilaydigan yana shunday omillar ham uchrab turadiki, ular xalqlarning milliy-madaniy ruhiyati bilan bog’liq bo‘ladi. Bunday xususiyatlarning tarjimada e’tibordan soqit qilinishi pragmatik adekvatliknining

yaralmay qolishiga olib keladi. Masalan, Farg’ona vodiysida yaqin o‘tmishgacha yosh otaning birinchi farzandini o‘z ota-onasi oldida qo‘liga olib suyushi, erkalatishi nokamtarlik, odobsizlik, uyat hisoblangan, yoki Samarqand va Buxoro shaharlarining tojikzabon eski shahar qismlarida hali-hanuzgacha mo‘min-musulmonligi kuchli ayrim xonadonlarga biror ehtiyoj uchun ichkari hovliga taklif etilgan mulla, mahalla oqsaqoli yoki biror obro‘-e’tiborli, o‘qimishli shaxs islomiy odob va axloq an’anasiga rioya qilgan holda, eshikni taqillatib, “Mardonami?” (ma’nosi: xotin-xalaj ochiq-sochiq yurishmayaptimi, erkaklar bemalol kiraverishi mumkinmi) degan savol bilan murojaat qiladi. Ichkaridan u “Ha, mardona, marhamat qilsinlar” javobini eshitgach, eshikni ochgan kishi taklifga ko‘ra ichkariga kiradi. Keyingi yillarda O‘zbekiston televideniesi orqali Meksika, Brazilya, Turkiya, va Koreya kinoseriallari namoyish etilmoqdaki, bu fil’mlarda hayoti tasvirlanayotgan xalqlar urf-odatlari, ruhiyati kabi qator jihatlar tomoshabin e’tiborini o‘ziga tortmay qolmayapti. Jumladan, uyiga tashqaridan kirib kelgan kishiga “Siz bu erda nima qilib yuribsiz?”, “Siz nima uchun bu yerga keldingiz?” (filmlarni Rossiya telekanali orqali ham ko‘ramiz: ularda “Что вы здесь делаете?”, “Зачем вы сюда пришли?” deyiladi. Ruscha tarjimalarning asliga to‘g’riligiga shubha qilmaymiz) deb murojaat qilishadi. Bunday muomalar film sohiblari uchun odatiy bo‘lgani uchun hech qanday e’tirozga sabab bo‘lmaydi. Ammo o‘zbek odatida eshigiga yuzlangan har qanday kishiga avvalo “Keling!” deb, uni bunga ehtiyoj bo‘lmagan taqdirda ham ichkariga taklif etadi. Bu xalqimizning mexmondo‘stligi bilan bog’liq milliy an’anadir. Kelgan kishini ichkariga kiritish niyati bo‘lmagan taqdirda ham baribir avval “Keling!” deyiladi-yu, so‘ngra “Xo‘sh, hizmat!” deb unga murojaat qilinadi. Bunday payitda “keling” so‘zi muloqotga samimiylik baxsh etib, kelgan kishining dilini yumshatadi, uning xijolatchilikdan chiqaradi. Binobarin, bunday an’anaviy tus olgan o‘zbekona rasm-rusmlarni tarjimada bekami-ko‘st aks ettirish xorijiy kitobxon tasavvurini xalqimizning o‘ziga xos hayot tarzi bilan boyitadi. Abdulla Qahhorning “Sinchalak” qissasida tandirga o‘t yoqayotgan Kifoyatxonning hovliga kirib kelgan Saidani o‘zbekona odobga ko‘ra “keling!” deb qarshilashi va bu lutfning ruscha

tarjimada oʻz aksini topmay qolgani muallif tomonidan ataylab aks ettirilgan milliy xususiyatni yoʻqqa chiqargan.

Har qanday badiiy asar milliy madaniyat oʻchoqlarida paydo boʻladi, unda milliy muammolar, oʻsha bir millatga xos boʻlgan xususiyatlar va albatta butun insoniyatga tanish va ma'lum boʻlgan muammolar aks etadi. Bir millatdan ikkinchi millatga oʻtar ekan adabiyot yanada boyiydi va insonlarning bir biri toʻg'risida koʻproq bilishiga koʻprik vazifasini oʻtaydi. Milliy rangdorlikni saqlash va yetqazib berish bu badiiy tarjimaning eng qiyin masalalaridan biridir. Tarjima tufayli juda muhim va mashhur boʻlgan badiiy asarlar har xil tilde soʻlashuvchi har xil chet davlatlarda oʻz oʻquvchilarining sonini oshirdi. Tarjima insonlarni bilim darajasini oshiradi va ularni hayotiy tajribalar bilan boyitadi. Milliy rangdorlik tarjimada aniq va toʻg'ri berilishi lozim. Milliy rangdorlikdagi dialektlar oʻzining xususiyatiga koʻra turli turlarga boʻlinadi, unda insonlarning ruhiy madaniyati turli xil tarjimada beriladi. Ilmiy va texnik badiiy tarjimalarda milliy fiziologik kategoriyalar uncha koʻp ishlatilmaydi. Ushbu yoʻnalishdagi ishlarning tarjimasi barcha millatlar va tillarda bir xil tarjima qilinadi. Shunday qilib, masalan; tabiiy fanlarni solishtiradigan boʻlsak Darvinning nazariyasi yoki klassik fizikada Nyutonning qonunlari, Eynshteyn va Borning nazariyalari yoki qonunlari barchamamlakatlar va tillarda bir xil ma'noga egadir.Ilmiy-tabiiy ishlarning tarjimasi asliyatidan koʻp farq qilmaydi.Undan tashqari ijtimoiy-siyosiy adabiyotda ham bir masala bor. Ushbu masala oʻsha bir davlatning g'oyaviy jamiyati, tarixi, uning tarixiy oʻziga xosligi va boshqalari ushbu birliklarhechqachon davlatning oʻziga xosligidan, talablaridan, siyosiy sharoitidan, farq qilmasligi yoki ajratilmasligi lozim.

I bob boʻyicha xulosa

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak hozirgi zamon tarjimashunosligida badiiy tarjimaning roli beqiyosdir zero u nafaqat tillar aro muloqot vazifasini bajaradi balki u millatlar va elatlarni birlashtiruvchi unsurdir. Badiiy tarjima jarayonida tarjimondan yuksak estetik did, mahorat va fantaziya talab etiladi. Bu bejizga emas chunki tarjima qilinayotgan har qanday badiiy asar tarjima tilida qaytadan dunyoga

keladi va o‘z muhlislariga ega bo‘la boradi. Biz qayta dunyoga keladi deganda uning boshqatadan yozilishini emas balki o‘girilayotgan tilda o‘sha til me’yorlari yordamida o‘zligicha qolishini faqat farqi asarning tili o‘zgarishini aytib o‘tmoqchimiz. Undan tashqari har qanday millat bor ekan uning o‘ziga xosligi mavjuddir va biz uni milliy o‘ziga xoslik milliy kolorit deb ataymiz. Ushbu milliylik nafaqat milliy asarlar yoki badiiy asarlarda, balki o‘sha bir millatga tegishli bo‘lgan va boshqa hechqaysi bir millat yoki elat hayotida ananalarida yoki urf odatlarida aks etadigan noananaviylikdir. Bu o‘rinda shunday savol tug’ilishi aniq, yaniykim o‘sha faqatgina bir millatga mos va xos bo‘lgan narslarni, odatlarni yoki bayramlarni biz tarjimonlar yoki to‘g’rirog’i badiiy tarjimonlar qanday qilib badiiy tarjima asarda berishlari mumkin? Bu muammoning yechimi allaqachonlar topilgan va hozirgi kungacha ushbu uslubdan foydalanib kelinmoqda, ya’ni o‘sha bir milliylikni anglaqtuvchi unsurni tarjima tilida ekvivalenti bo‘lmagan holda tarjima qilinayotgan o‘sha mamlakatdagi biror bir o‘xshash narsaga qiyoslagan holda tarjima qilinishi mumkin, ya’ni o‘xshatish orqali. Undan tashqari o‘sha bir milliylikni anglatuvchi bir unsurning ekvivalentini topish muammo bo‘lib turganida uning nima ma’no anglatishini va qanday qay hollarda ishlatilishini tarjimon o‘zining tarjima jarayonida o‘rganadi va tarjimada kitobxonga tushunarli bo‘lgan darajada uning qisqacha ma’no mazmunini berishga harakat qiladi Shunday qilib badiiy tarjimon nafaqat badiiy asarni tarjima qilaolishi balki asardagi o‘ziga hoslikni va albatta milliylikni saqlagan holda kitobxonga yetqazaolishi lozimdir. Bunday qonun qoidalar asosida tarjima qilingan har qanday badiiy asar albatta kitobxonga yoqadi va tarjimon o‘z oldiga qoyilgan buyuk vazifani ya’ni tarjima orqali millatlararo ko‘prik vazifasini to‘liqligica bajargan bo‘ladi deb ishonch bilan aytaolamiz.

II BOB

Badiiy tarjimada milliy koloritni saqlash masalalari

2.1. Badiiy tarjimada adekvatlikka erishish muammolari

Yer yuzida o‘lik tillar bilan birga 2500 tadan 7000 tagacha til mavjud deb taxmin qilinadi. Hozirda sayyoramiz aholisi 2976 ta tilda muomala qiladi. Insoniyat 11 ta asosiy va 50 ta “mayda” lisoniy turkumlarga kiradigan tillarda fikr almashadi. Xalqlar jami 7-8-mingtacha shevalardan foydalanadilar. Qo‘llanish doirasiga ko‘ra quyidagi tillar buyuk tillar hisoblanadi: xitoy, ingliz, ispan, rus, arab, fransuz, hind, nemis, yapon, italyan. Ushbu tillardan oltitasi BMT tomonidan jahon tillari sifatida tan olingan: ingliz, rus, fransuz, ispan, xitoy, arab.“Dunyoda taxminan 2 ming xalq yashaydi. 200 ga yaqin ko‘p millionli xalq mavjud, ular yer kurrasining 95 foiz aholisini tashkil qiladi. Dunyo aholisining bor-yo‘g‘i 5 foizi qolgan 1 mingu 800 xalqning hissasiga to‘g‘ri keladi”

Sayyoramiz aholisining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘i 27 tilda, uchdan bir ulushidan kamrog‘i esa taxminan 2 mingdan ortiq tilda so‘zlashadi Xalqlarning qanchalik taraqqiy etgani yoki xalqaro nufuziga qarab, ularning tillari ham mashhur bo‘lgan. Chunonchi, antik davrdan to arablar tarix sahnasiga chiqqunga qadar yunon tili mashhur bo‘lgan. VIII-IX asrdan to XII-XIII asrlargacha arab tilining nufuzi yuksak bo‘ldi. XVI asrgacha lotin tili shuhrat qozondi. “XVI asrda Yevropada va hatto butun dunyoda ispan tili shoyon bo‘ldi, XVIII-XIX asrlarda fransuz va nemis tillari, XIX-XX asrlarda ingliz tili keng tarqaldi. Hozirgi vaqtda rus yoki ingliz tilini bilish dunyoda mavjud bo‘lgan barcha axborotlarning 70-80-foiziga yo‘l ochadi” [8, 35]. 1952 yili Xalqaro tarjimonlar federatsiyasi tuzilgan.Yevropa kengashi 2001 yildan 26 sentyabrni xorijiy tillar kuni deb e’lon qilgan. Adabiyotshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti shuni ko‘rsatadiki, hech bir halq adabiyotini boshqa adabiyotlardan ajratib olib, alohida o‘rganish mumkin emas. Chunki jahon adabiyoti yagona organizm bo‘lib, u katta-kichik turli milliy adabiyotlarning o‘zaro ta’siri rivojidan tarkib topadi. Kishilar er yuzining turli mintaqalarida yashab kelishlaridan qat’iy nazar, yaratilgan ma’naviy boyliklarini

o‘zaro baham ko‘rishga intilmoqdalar, bir-birlarining san’atidan, badiiy kashfiyotlaridan zavqlanib, qalban va ruhan yaqinlashib bormoqdalar.

«Kundalik aloqa vositasi bo‘lgan tilga nisbatan badiiy adabiyot tili - deb yozadi A.V.Fedorov,- bu so‘z ustalari tomonidan qayta ishlangan tildir [25, 35]. Tarjima millatlar orasida bevosita ma’naviy aloqa qilish quroli. CHunki u madaniy boyliklar, kishilarning ko‘p asrlik ezgu armonlari, g‘oyasi va qarashlari mujassamlangan asarlarni o‘zga til sohibi bo‘lmish xalqqa yetkazadi, xalqning ko‘ngil daftarini namoyish etadi.Jahondagi turli-tuman tillarda yaratilgan badiiy adabiyot asarlari katta tarjima yo‘lida ayribosh qilinadi. Tarjimasiz, faqat o‘z ichki resurslari hisobigagina rivojlanadigan, uzoq va yaqin boshqa halqlar bunyod etgan madaniy boyliklardan bahramand bo‘lmagan «sof» milliy «tiniq» madaniyat, adabiy o‘zgarmas «toza til» yo‘q, bo‘lishi ham mumkin emas.Agar tarjima bo‘lmaganida milliy madaniyatlar va insoniyatning buyuk daholari bunyod qilgan o‘lmas fan va san’at obidalari yakkalanib qolgan bo‘lar edi.Tarjima internatsionalizm va halqlar do‘stligi quroli. Tarjima yo‘li bilan milliy madaniyatlar bir-birlarini boyitadilar. Tilda, tafakkurda, madaniy adabiy hayotda, san’atda hamma joyda uning o‘ziga xos ta’siri sezilib turadi. Tarjima, ayniqsa so‘z san’ati bo‘lgan badiiy adabiyotda katta o‘rin tutadi.Qardosh halqlar adabiyoti va jahon progressiv adabiyoti namunalarining o‘zbek tiliga tarjima qilinayotganligi tarjimashunosligimizning katta muvaffaqiyatlar bilan olg‘a rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Milliy madaniyatimizning jahon halqlari madaniyatlarining eng yaxshi an’analari bilan yaqinlashuviga, halqlar o‘rtasidagi do‘stlikning kuchayishiga va o‘zbek kitobxonlarining jahon progressiv adabiyoti namunalaridan bahramand bo‘lishiga xizmat qiladi.Zotan, fan, madaniyat va texnika sohasida ro‘y berayotgan aksari olamshumul hodisalar bevosita tarjima tufayli ommalashadi. Badiiy tarjimaning tarbiyaviy, siyosiy, g‘oyaviy va estetik ahamiyati hamda ma’rifatparvarlik rolining bundan keyin ham tobora oshib boraverishi davr, zamon talabidan kelib chiqadi.Halqimizni jahon fani, texnikasi, madaniyati va ijtimoiy fikr taraqqiyotining buyuk yutuqlaridan bahramand qilish, halqlar do‘stligi ruhida tarbiyalash kabi muqaddas vazifani amalga oshirishda tarjimachilik ishi g‘oyat

katta ahamiyatga ega.Bizningcha, ham to‘g‘ri va chiroyli tarjimagina mukammal va ideal san’at asari bo‘la oladi. Bunday tarjima yaratishning o‘zi esa chinakam san’atdir. Bunday san’at tarjimondan to‘g‘ri tarjima qilish doirasida chiroyli tarjima etishni va chiroyli tarjima etish doirasida to‘g‘ri tarjima qilish mahoratini egallashni talab etadi.

Tarjima amaliyotida quyidagi xilma-xilliklar uchrab turadi.

1. Tarjimonlarning tajribasi, malakasi va e’tiqodi bir-biridan jiddiy farq qilishi natijasida kelib chiqadigan tafovutlar.

2. Tarjimonlarning tarjima qilish prinsiplarini har xil talqin etishlari tufayli kelib chiqadigan tafovutlar.

3. Tarjimonlarning uslubi muallif uslubiga ta’sir etishi natijasida tabiiy ro‘y beradigan tafovutlar.

Ana shu uchta sabab tufayli muayyan bir asarni masalan o‘nta tarjimon o‘z tiliga o‘girsa, natijada bir-biridan farq qiladigan o‘n xil tarjima hosil bo‘ladi.Badiiy tarjimada muallif uslubini har bir tarjimon o‘ziga xos uslub bilan tiklashga intilishi tarjimachilik amaliyotida yuz berayotgan ana shu tafovutlarga sabab bo‘ladi.Agar tarjimada muallif uslubi to‘g‘ri berilmagan bo‘lsa, bunday tarjimaning asl nusxaga mosligiga aslo ishonib bo‘lmaydi. Unda tarjimon, beixtiyor muallifning o‘rniga o‘zini qo‘ygan bo‘ladi. Tarjimonning ikki tilni mukammal bilishi, turmush tajribasi, badiiy mahorati hamda yozuvchi uslubini to‘la egallashi va buni tarjimada qayta tiklay olishi qanchalik zarur ekanligini yaqqol ko‘rsatadi.«Uslub» tushunchasi tor ma’noda talqin qilinganda asarda tasvirlangan personajlar nutqining o‘ziga xos uslubi tushuniladi. Har bir so‘zning o‘z uslubi borki, albatta imlo lug‘atidan so‘zlarga qarab, ularning uslub xususiyatlarini aniqlayman deyish behuda urinish bo‘lar edi. So‘zlarning uslub xususiyatlari badiiy matn ichida, so‘zlarning birikishida ochiladi.Masalan: «o‘lmoq» so‘zi «dunyodan o‘tmoq, oyoq cho‘zmoq, ko‘z yumdi, abadiy uyquga ketdi, joni uzildi, kuni bitdi, bandalikni bajo keltirdi, asfalasofilinga jo‘nadi» kabi birikmalarning har birida o‘ziga xos stilistik ma’noga ega. Bu stilistik variantlarning har birini o‘z o‘rnida ishlatishning katta amaliy ahamiyati bor, basharti ular noo‘rin qo‘llansa qo‘pol xato kelib chiqishi

mumkin. Masalan «dunyodan o‘tdi» o‘rniga «joni chiqdi» deb bo‘lmaydi [19, 109].

. Badiiy asarni tarjima qilish uchun tilning lug‘at boyligi, chunonchi sinonim va omonimlar, kasb-hunar terminlari, dialektal, eskirgan va vulgar so‘zlar, erkalash va kichraytirish, qochiriq, matal va idiomalarni hamda so‘zlarning musiqiyligiyu, ohangdorligini, ko‘p ma’noliligini, tilning talaffuz normalarini, mubolag‘a va kichraytirish xususiyatlari, yumor-hazil-mutoyiba formalarini bilish zarur.Tarjimashunos olim G‘aybulla Salomov, badiiy asarni qayta yaratish jarayonida amalga oshadigan uch bosqich to‘g‘risida to‘xtalib, shunday fikrni keltiradi:

1. Asl nusxani tarjimon qanday qabul qilishi (tushunishi).
2. Asarni real, avtorning maqsad-muddaosi va uning o‘ziga xos uslubini qanday talqin qilishi.
3. So‘z san’ati namunasini o‘z ona tilida qayta tiklashda muqobil vosita topa olishi.

Badiiy tarjimani ilmiy tavsiflash shundan iboratki, bunda so‘zni so‘z bilan emas, balki ma’noni ma’no bilan, ohangni ohang bilan, obrazni obraz bilan, yumorni yumor bilan berish muhim ahamiyatga egadir».Badiiy tarjimaning boshqa turdagi tarjimalaridan farqi shundaki, so‘z, jumla yoki butun bir asarni to‘g‘ri o‘girish kifoya emas. Bunda tarjimon ham san’atkor bo‘lishi lozim [7, 45] .»Tarjimonlar o‘zga milliy adabiyotlarda mavjud bo‘lgan eng sara, katta ijtimoiy, adabiy-estetik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan kitoblarni o‘z tillariga ag‘darishga oshiqadilar. «Qayta yaratish bilan bog‘liq umumiy adabiy estetik jarayonning uch tomoni: tanishuvdan kelib chiqqan tarjima, tarjimadan kelib chiqqan tanishuv, hamda bularning har ikkalasidan hosil bo‘lgan ta’sir bir-biri bilan dialektik tarzda chambarchas bog‘liqdir [20 - 6. 280.]. Badiiy tarjimaning boshqa turlariga qaraganda she’riy tarjima «ko‘proq» san’atdir. She’riy tarjima badiiy tarjimaning oliy navi desa bo‘ladi. Nasriy asarlar tarjimasiga yozuvchilardan tashqari professional tarjimonlar ham jur’at etadilar. Ammo she’riy tarjima – bu aksariyat shoirlar, shoir-tarjimonlar ishidir. To‘g‘ri, ahyon-ahyonda

ilgari nasriy asarlar tarjimasi bilan tanilgan tarjimonlar yoxud olimlar ham nazm tarjimasiga qo‘l urganlar. Masalan, atoqli turkolog olim Sergey Nikolaevich Ivanov Alisher Navoiyning «Lisonut-tayr» dostonini qadimgi o‘zbek tilidan ruschaga tarjima qildi. Talantli tarjimon Qodir Mirmuxammedov Gomerning mashhur «Illiada»sini, atoqli yozuvchi Oybek A.S.Pushkinning «Evgeniy Onegin» she’riy romanini o‘zbek tiliga o‘girdilar. Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma»sidan uch jildi Hamid G‘ulom, Shoislom Shomuhammedov, Jumaniyoz Jabborov, Nazarmat tarjimasi tufayli xalqimizning qo‘liga tegdi [21, 9].Xalqaro Firdavsiy mukofotining laureati adabiyotshunos olim va tarjimon Shoislom Shomuhammedov Alisher Navoiyning «Devoni Foniy» majmuasi materiali asosida yozgan «Gumanizm – abadiylik yalovi» nomli maqolasida G‘arbda ilm-fanning, insonga nisbatan gumanistik g‘oyalarning taraqqiyotiga Sharq madaniyatining yutuqlari asos bo‘ldi, degan fikrni tasdiqlovchi bir qancha dalillarni keltiradi [23, 53].

.Yuqorida nomlari keltirilgan adiblarning ishlarida she’riy tarjima texnikasi, qiyosiy she’rshunoslik, she’riy talqin va tarjima, nazm tarjimasining evolyusiyasini kuzatishga aloqador qimmatli fikrlar bayon etilgan. Lekin, hali she’riy tarjima bahsida nazariy jihatdan qilinadigan ishlar ko‘p.Har qanday badiiy asarning shakl va mazmunining dialektik birligini tarjimada qayta yaratilishi to‘la-to‘kis adekvatlikka erishishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Agar mazmun birinchi o‘ringa qo‘yilib, shaklga e’tiborsizlik bilan qaralsa, muallif uslubi hamda personajlar nutqlari bayoni to‘laqonli chiqmaydi. Shakl va mazmunni bir butun holda qayta tiklash ham ijodiy jarayon bo‘lib, u tarjimondan asliyatning mazmun va g‘oya birligini qayta yaratish bilan bir qatorda, uning muvofiq shaklini ham qayta tiklashni talab qiladi. Mazmun va shakl birligining tarjimada to‘laqonli aks ettirilishi trajimondan faqatgina amaliy emas, balki nazariy bilimlarni ham egallashni talab qiladi. Til hodisalari sirlarini o‘zlashtirib olmasdan, asliyat va tarjima tillarining o‘zlariga xos qonun qoidalaridan, hamda muallifning individual ijodiy uslubidan xabardor bo‘lmay turib asar ruhini to‘la talqin etish aslo mumkin emas.Mashhur tarjimashunos G.R. Gachechiladze haqli ravishda «Birinchi

koʻrinishda asarni qayta yaratish uning shakl va mazmun birligini takrorlash yoʻli bilangina amalga oshishi mumkindek boʻlsa, tarjima qilish, darhaqiqat imkoniyatdan tashqari holdir. Ammo bu boshi berkday koʻringan koʻchadan chiqib olish imkoniyati bor: bu tarjimaning san'at ekanligidir. Tarjima shuning uchun ham san'atki, unda shakl va mazmun bir-biridan ajratilgan holda emas, balki bir butun holda qayta yaratiladi. Tarjima asliyatga mos shakl va mazmun birligini yaratishi lozim»(1.s.26) deydi. Demak, ma'lum shakl kasb etgan til birliklari xilma-xil stilistik funksiyalar bajaradi. U jumlalarning sintaktik qurilishda, personaj nutqining oʻziga xosligida, tilni buzib gapirishida, soqovlanib, tutilib gapirishida va hakozolarda oʻz aksini topadi. Bu xususiyat har bir milliy tilda oʻziga xos ravishda ifodalanganidan bir milliy yozuvchi ijodida ham oʻziga xos hususiyatga ega boʻladi. Jahon adabiyoti durdonalari boʻlmish koʻpgina asarlarning oʻzbekcha tarjimalarida shakl va mazmun birligi yaxshi aks etganligi uchun ham ular xalqimizning sevimli asarlariga aylanib koldi. Oʻzbek kitobxonlarini bu asarlarning gʻoya va mazmunlarigina emas, balki ulardagi fikrni bayon qilishda tanlangan shakllar ham sehrlab qoʻymoqda. Shekspirning «Gamlet» va «Otello» tragediyalari, A. S. Pushkinning «Evgeniy Onegin», L. N. Tolstoyning «Urush va tinchlik» hamda «Anna Karenina», Voynichning «Soʻna», M. SHoloxovning «Tinch Don» romanlari shakl va mazmun jihatidan bir butun xolda oʻzbekchaga san'atkorona tarjima etilganligi uchun ham ularning mualliflari kitobxon koʻz oldida butun buyukliklari bilan gavdalanib turadi.Shakl va mazmunning dialektik birligi xar bir asarda mujassam boʻlgani kabi, uni tashkil etadigan soʻz va iboralarda, jumla va parchalarda xam aks etadi, Bu xususiyat har bir milliy tilda oʻziga xos ravishda gavdalanganidek, har bir milliy yozuvchi ijodida xam oʻziga xos xususiyatga ega boʻladi. Shunga koʻra, aruz vaznining rang-barang baxrlari asosida yaratilgan shark klassik she'riyati namunalarini, jumladan, Gʻarbiy Ovroʻpo xalqlari tillariga, yoki, sochma vaznda yaratilgan she'riy asarlarni SHark xalqlari tillariga tarjima kilishda bu vaznlarnnng xar qay-sisiga xos shaklni saqlab kolishgina adekvatlikni ta'min etadi.

Tarjimashunos olim I.Zinger: «Tarjimon sinchkov o‘quvchi, ajoyib uslubchi, so‘z ustasi, psixolog, har tomonlama bilimdon bo‘lishi kerak», deydi. Ammo shuni ham e’tibordan qochirmaslik lozimki, bu ishga ixlos bilan yondashishga shaylangan tarjimonlar uchun aniq ishlangan uslubiy yo‘riqnoma yoxud tarjimada aniqlikka erishish borasida qat’iy bir to‘xtamning o‘zi yo‘q. Tarjimada aniqlik tarjima asarning asliyatga nechog‘li yaqinligida, ya’ni adekvat ekanligida namoyon bo‘ladi. Badiiy tarjima turlaridan bo‘lmish she’riy tarjimada faqat lingvistik yoki faqat adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondashuv biryoqlamalikni keltirib chiqaradi. Xo‘sh, she’riy tarjimada aniqlik qanday omillar asosida yuzaga keladi?G‘arblik olimlarning bu boradagi qarashlari shu qadar tarqoqki, tarjimon qaysi yo‘ldan borishi maqbulligini aniqlashda ancha bosh qotirishiga to‘g‘ri keladi. Tilshunos olimlar Yu.Nayda, V.Komissarov tarjimada mazmun, semantik, uslubiy va funktsional jihatdan yaqinlik adekvatlikni ta’minlashdagi asosiy omillar sirasiga kirishini ta’kidlasalar, V.Vinogradov fikricha, matnning asliyatga yaqinlashuv darajasi ko‘plab omillarga, xususan, tarjimon mahorati, til va madaniyatlarning bir-biriga yaqinlik jihati hamda tarjima qilinayotgan matnning xarakteriga bog‘liqdir. Adekvatlik masalasida adabiyotshunos-tarjimonlarning qarashlari tilshunos-tarjimashunoslarnikidan farqlanadi. K.Chukovskiy, I.Kashkin, G.Gachechiladze, Vl.Rossels, O.Kundzich singari adabiyotshunos va adiblar tarjimaga adabiy jarayon sifatida qaraydilar. Ular til qoidalari muvofiqligini badiiy ko‘maklashuvchi unsur, deb biladilar. Bunday yondashuvga ko‘ra, adekvatlik tarjimaning asliyat badiiyligiga muvofiqligi orqali belgilanadi. Adabiyotshunoslar tilshunoslarning til muvofiqligiga qat’iy rioya qilish va tarjimaning variatsiyalar hamda ijodiy yondashuvni inkor etadigan me’yoriy sistemasini yaratishga urinishlarini ma’qullamaydilar. V.Vinogradov she’riy tarjima faqat asliyatga adekvat bo‘lishi lozim, deb hisoblaydi. Uningcha, badiiy tarjimaning o‘z ijodkori, yaratuvchisi, til manbai va uslubi mavjud. Eng yaxshi she’riy tarjima asliyatga mos tarjimadir. Moslik darajasi faqat matnlarning lisoniy muvofiqligi bilan emas, balki badiiy adekvatlik bilan ham baholanishi kerak. Bu nima degani? S.Goncharenko fikricha, bu — asliyatdagi uslubiy jihat va she’riy matn xususiyatining tarjimada aks

etganligi bilan belgilanadi. Badiiy adekvatlik ikki til, ya’ni asliyat va tarjima tilining poetik xususiyatini bir maromda saqlab turishi lozim.Ko‘rinib turibdiki, tilshunos va adabiyotshunos olimlar ekvivalentlik va adekvatlik tushunchasiga, asosan, o‘z ixtisosliklaridan kelib chiqib yondashadilar. Ular qarashlarining cheklanganligi ham shu bilan izohlanadi. Chunonchi, ekvivalentlik bilan cheklanuvchilar «matn, bu — sistema», deb qarasalar, adekvatlik tarafdorlari «matn, bu — tirik organizm», deb hisoblaydilar. Bunday bahslarga umumiy nazar tashlab, har ikkala qarash tarafdorlari yondashuvlarida biryoqlamalik mavjudligini ko‘rish mumkin. Bizningcha, adekvatlik masalasida umumiy maxrajga kelish imkoniyati bor.Ta’kidlash joizki, tarjima tahlili va tanqidi tarjimachilikda uslubiy yo‘riq vazifasini o‘taydi. Bir asar tarjimasi tahlilida kamchiliklarning ochib berilishi natijasida tarjimonlar o‘sha asarni qayta tarjima qilib, mukammal tarjima variantlarini yaratgani adabiyot tarixidan ma’lum.Ammo hali tarjima tahlili va tanqidi maktabi talab darajasida shakllanmagan. Tarjima muammolariga oid fikrlardagi tarqoqlik, biryoqlamalik ayrim tarjimashunoslarning tadqiqotlarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, filologiya fanlari nomzodi N.Isamuhamedova tadqiqotida V.Shekspirning «Otello» dramasidan “She was false as water” iborasining G‘.G‘ulom va J.Kamol tarjimalarida berilish uslubini tahlil etar ekan, “water”(suv) leksemasining kognitiv xaritasini tuzadi. Unga binoan, lug‘atlarda berilgan “suv” leksemasining xavotir va xavf bilan bog‘liq assotsiatsiyaga ega tushuncha ekanligini aniqlaydi. Shuning uchun ham False so‘zining lug‘aviy ma’nosini keltirishni to‘g‘ri deb hisoblaydi. Buni tadqiqotchining G‘.G‘ulom va J.Kamol tarjimalarini jadval vositasida tahlil qilib, J.Kamolning suvga nisbatan qo‘llagan *betiyiq va beqaror* sifatidan G‘.G‘ulomning *aldamchi, riyokor* sifatini adekvat, deyishida ko‘rish mumkin. Tadqiqotchi masalaga lingvist sifatida to‘g‘ri yondashgan. Biroq adekvatlikni ta’minlashda faqat lingvistika nuqtai nazaridan yondashilsa, adekvatlik borasida umumiy maxrajga kelish qiyin kechadi. Misol uchun, N.Isamuhamedova xulosasiga adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan boshqacha baho berish mumkin. Ma’lumki, *False* so‘zining muqobillari quyidagicha: 1. Wrong (noto‘g‘ri, xato), incorrect (xato, noto‘g‘ri, noaniq); 2.

Spurious (soxta); 3. Improper (nomuvofiq, notoʻgʻri); 4. Deceptive (aldamchi, adashtiradigan); 5. Deceitful (sunʼiy, soxta); 6.artificial (sunʼiy).7. treacherous (xoinona, ishonchsiz); 8.unfaithful (xiyonatkorona, munofiqona);9.not genuine (asliyati emas, toza koʻngilli emas); 10.fake (yasama nusxa,firibgarona);11. Betrayal (sotqinlik, xiyonat); 12.artificial (sunʼiy, yuzaki). Ammo ularning har biri oʻz navbatida yana bir qancha muqobillariga ega. Ularni bir sistemaga keltirib, umumiy maʼnodoshlari aniqlansa, masala ancha ravshanlashadi.J.Kamol tarjimasidagi *betiyiq, beqaror* soʻzlarining oʻzbekcha: *bir qarorida turmaydigan; subutsiz; ishonib boʻlmaydigan; bevafo; aldamchi; ikkiyuzlamachi; riyokor; ishonchsiz; uyatsiz; vaʼdaboz; xoin; lafzsiz* kabi maʼno muqobillari bor. Koʻrinib turibdiki, J.Kamol variantining muqobil maʼnolari asliyatdagi sifatning muqobil maʼnolariga deyarli toʻgʻri keladi. Shunday ekan, tarjimada har ikkala tarjimon keltirgan sifatlar bir umumiy maʼnoni, yaʼni Dezdemonaning sevgida sobit emasligi, oʻzgaruvchanligi, bevafoligini anglatish uchun toʻgʻri qoʻllangan. Ammo lingvistik jihatdan adekvat boʻlishi mumkin boʻlgan “aldamchi va riyokor suv” oʻzbek sheʼriyatida sunʼiy ifoda sanaladi. Adekvatlikning qatʼiy talablaridan biri maʼno va ifoda adekvatligidir. Oʻquvchi *aldamchi, riyokor suv*ni tasavvur qila olmaydi. Ammo oʻz oʻzanida tinch turolmaydigan, hamisha turlicha oqadigan suvni, yaʼni *beqaror* suvni, oʻzini boshqara olmaydigan — *betiyiq suvni* yaxshi tasavvur qiladi. *Beqarorlik subutsizlik, oʻz soʻzida turmaslik* kabi salbiy sifatlarga maʼnodoshdir. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da *beqaror* va *tiyiq* soʻzlariga quyidagicha taʼrif beriladi: “*Beqaror* — 1. Birdek turolmaydigan, ha deb oʻzgaraveradigan. *Beqaror Amu.* 2. Bir joyda qoʻnim topmaydigan, ha deb koʻchib yuradigan; qoʻnimsiz. *Darbadarlikdan, oʻzimning simobday beqaror, sayoqligimdan juda oʻkinar edim.* G‘.Gʻulom, Shum bola. Tiyiq — 1. Oʻzini tiyib, bosib, tutib olgan; 2. Quyulgan, bosiq”. Shunday ekan, J.Kamolning tarjimasi G‘.Gʻulomnikiga nisbatan adekvat deyishga asos bor. Bu yerda ingliz tilidagi *false*ning maʼnosi buzilmagan: *false* aldamchilik va riyokorlikning maʼno muqobillari boʻlgan beqarorlik va betiyiqlikning aynan oʻzidir. Demak, kognitiv analizning muhim komponentlaridan biri maʼnoviy yondashuv boʻlmogʻi

lozim.Umuman, “She was false as water” iborasi ingliz adabiyotida deyarli uchramaydi. Bu iboraning kelib chiqishi va muqobillarini aniqlash maqsadida internet tarmog‘ida izlanganimizda Shekspir muxlislari tashkil etgan onlayn forumga duch keldik. Unda bir ingliz ayoli o‘z vatandoshlaridan bu iboraning ma’nosini izohlab berishni va u qanday qilib Shekspir leksikasiga kirib qolganini so‘raydi. Bu so‘rovnomaga ko‘plab ingliz adabiyotshunoslari va klassik adabiyot muxlislari javob qaytargan. Aksariyat ishtirokchilar Shekspir suvdagi bir maromda turmaslik, har xil oqimda oqish, ya’ni beqarorlik xususiyatlarini Dezdemonaning xiyonatkorona xulqiga mengzaganini ta’kidlaydilar, bu ibora ingliz adabiyotiga yotligi, Otelloning lotin-amerikacha tarbiyasi va obrazini rangdor ifodalash maqsadida qadimgi lotin-amerika adabiyotidagi ba’zi manbalarda uchraydigan mazkur iboradan foydalanganligini aytishadi. Demak, ingliz kitobxoni ham suvga nisbatan false leksemasi qo‘llanganda biroz tushunmayroq qolar ekan.Adekvat tarjimada kitobxonning matnni tushunishi va his qilishiga sharoit yaratmoq lozim. O‘zbek kitobxoni uchun “Oqin suvdek, u aldamchi, riyokor edi”dan ko‘ra “Oqar suvday betiyiq, beqaror edi”, misrasi ko‘proq tushunarli va ayni paytda, bu ibora inglizcha “false as water” iborasiga adekvat qabul qilinadi.Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, G‘.G‘ulom Shekspir asarini rus tilidan, J.Kamol esa bevosita ingliz tilidan tarjima qilgan. Adekvatlik haqida so‘z ketar ekan, buni alohida inobatga olish lozim bo‘ladi. Bu esa har qanday holatda ham badiiy asarni asliyatdan tarjima qilish afzal ekanini ko‘rsatadi.Qisqasi adekvat tarjima ekvivalent tarjimaning yuqori darajadagi ko‘rinishi bo‘lib, unda leksik-semantik muvofiqlik kitobxonning badiiy tafakkuri va badiiy tasvirni idrok etish me’yorlariga uyg‘un bo‘lishi lozim. Chunki ruhiyat va ohangni saqlash adekvatlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib, tarjimondan tegishli adabiyot ilmlaridan talab darajasida xabardorlikni taqozo etadi. Ammo bu adekvatlikni ta’minlashda lingvistik mahorat ikkinchi o‘rinda turadi, degani emas. Tarjimaning lingvistik tomonlariga e’tibor qaratmay tahlil qilish mutarjim ishini xolis baholashga xalal beradi. Tarjimashunos olim G‘aybulla Salomov: “...tarjimonda yozuvchi va tanqidchi, aktyor, rassom, bastakor va olim mehnatidan nimadir bor. Bu shundan iboratki, tarjimon lingvist bo‘lib lisoniy

manbani tahlildan o‘tkazadi, aktyor singari birovning qiyofasiga kiradi va ayni vaqtda o‘zligini saqlaydi, o‘zi o‘girayotgan narsaga va, ayniqsa, o‘z mehnatiga tanqidiy nazar bilan qaraydi, tarjima qilinayotgan asliyatni yaxlit holga hamda bo‘laklarga bo‘lib bir necha marotaba kerakli joyda ovoz chiqarib! o‘qiydi, “o‘lik” matn orasidan muallifning jonli siymosini va qalbini qidiradi.

Xullas, gap orqasidan quvmaydi, balki ma’no, kuy, ohang, bo‘yoq izlaydi”, deb yozadi. Shunday ekan, zahmatlar evaziga o‘girilgan asarlar tarjimasiga xolis baho berish zar qadrini bilgan zargarlarga xos ishdir.Prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch” asaridagi tarjimashunoslik sohasining rivojiga doir zarur ko‘rsatmalari bu sohadagi mudroq kayfiyatni sergaklantirdi. Tarjima davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan ekan, endi astoydil bu ishga kirishish, yechimini kutayotgan muammolarni keksa avlodning boy tajribasiyu yosh avlodning shijoati va yangicha g‘oyalari orqali yakdillikda qaytadan ko‘rib chiqish vaqti keldi. Ishonamizki, XXI asr o‘zbek tarjimachiligida “bevosita tarjima” maktabi to‘la shakllanadi. Zero, bugungi kunda bu maktabga tashlanayotgan ilk poydevorlar bo‘y ko‘rsatmoqda.

2.2. Milliy kolorit va uni tarjimada berilishi

Tarjima chin ma’nodagi san’atdir. San’at bo‘lganda ham buyuk va ulkan mehnat hamda mahorat talab qiluvchi, mashaqqatlar evaziga erishiladigan san’atdir. Tarjima haqida biz ko‘pincha axborot tarzidagina gapirishga o‘rganib qolganmiz, kim nima tarjima qilganini tushunamiz. qolaversa, matnlarni qiyoslab ularning mos tushish darajasini belgilaymiz. Aslida tarjimani odatiy ma’nodagi tarjimadan ko‘ra badiiy ijod sifatida baholash lozim. Tarjima sermuammo san’at. Uning xususiyati to‘grisida ko‘pgina ziddiyatli fikrlar mavjud. Unga amaliy yondashilgandagina murakkab jarayon ekanligini guvohi bo‘lamiz. Tarjimaning har bir turi, har bir janri o‘z tarjima muammolariga ega. Bularning barchasini tarjimonlarimiz echib, ushbu murakkab universal sohaning rivojiga o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar.Tarjimada so‘zni to‘gri tanlay bilish ham katta muammo kasb etadi. CHunki, aynan ana shu so‘zlarni tarjimon tomonidan noto‘gri yoki o‘rinsiz

qo‘llanishi tufayli ko‘pgina asarlar nafosatiga putur etadi. Masalan, G.Uells, Mark Tven, Jek London, Daniel Defo, P.

Abraxamslar qalamiga mansub badiiy barkamolligi bilan boqiylik kashf etgan ko‘pgina badiiy asarlarning o‘zbek tilidagi tarjimalari inglizchasiga olib qaralganda asliy asarning umumiy nafosatiga ziynat baxsh etuvchi ko‘pgina badiiy bezaklariga putur etganligini kuzatamiz. Jumladan, T.Grinning «Tinch amerikaliklar» asari tarjimasida mehrob va chilim so‘zlari uchraydi. Vaholanki, Angliyaning Glazgo shahridagi bir muharrirning xonasida siniq chilimning yotishi, amerikalik bir kimsaning ringda yaktak yopinib o‘tirishi haqiqatdan yiroqdir. Asarning ruscha tarjimasida yuqoridagi so‘zlarni sobor, trubka, sviter, kabi leksik birliklar bilan berilgan, qolaversa, tarjimada ma’nolari echilmay qolgan leksik birliklar ham tez-tez uchrab turadi. Masalan:

O‘zbekcha: «Otamiz Gueda mandarin edi»;

Inglizcha: «He was a mandarin».

Yuqoridagi jumlani o‘qigan kitobxon “mandarin” ni nima ekan deb hayron bo‘ladi. Agar tarjimon o‘zbek tili leksikasiga qadam qo‘yayotgan bunday neologizmlarga izoh bersa yoki uning ma’nosini “Otamiz Gue shahrida katta mansabdor edi” qabilida bersa, jumla ravon chiqardi.

Ushbu asardagi ma’nolari ochilmay qolgan so‘zma-so‘z tarjimalarga yana misollar keltiramiz:

Inglizcha: The Southern Grass, to those like my wife who believe may be a favourite hymn or preyer beside the bed.

O‘zbekcha: «Janubiy Krest gimn yoki kechki ibodatnoma»

Biz esa quyidagi tarjima muqobilini tavsiya etamiz: «Janubiy salb yulduzlari mening xotinimdek taqvodor ayollar uchun injilning noyob surasi yoki yotish oldidan o‘qiladigan bir duo ramzi hisoblanadi».

Inglizcha: 2) a sleeping bag.

O‘zbekcha: Uxlaydigan qop (61-bet).

Tavsiya varianti: Ko‘rpa (to‘shak,uxlash qopi), xoblibos

Har qanday tilning leksikasida o‘ziga xos leksik va polisemantik birliklari mavjud. Jumladan, Jek London ingliz tilidagi «gun» so‘zining polisemantik xususiyatiga tayanib, uni miltiq va qurol-aslaha ma’nosida qo‘llanganini ko‘ramiz:

Inglizcha: Every hated face was a gun. It was for the guns he fought. He was the guns. He was the revolution. He fought for an Mexico.

O‘zbekcha: «O‘tirgan davlatlarning har biri bir miltiq. U miltiq uchun hozir jangga kiradi. Uning o‘zi miltiq. Uning o‘zi revolyusiya. U bugun Meksika uchun kurashmoqda».Parchaning ruscha va o‘zbekcha tarjimalaridagi ikkinchi va uchinchi jumlalar asliy inglizcha matn ma’nosini ifodalamaydi. Hikoya qahramoni Rivera Revolyusiya arafasida qurol-aslaha sotib olish uchun mablag’ topish umidida katta baxs olishuvida qatnashadi.

O‘z raqibiga nisbatan jismonan mahorat jihatdan ancha zaif bo‘lsa ham g’alaba qilishni maqsad qilib qo‘yadi. Qahramonning mana shu ruhiy kayfiyatini ifodalovchi parcha esa, inglizchaga nisbatan quyidagicha tarjima qilinishi kerak edi:«O‘tirgan jirkanch basharalarning har biri bittadan miltiq. U qurol-aslaha uchun kurashmoqda. Uning o‘zi qurol-aslaha. Uning o‘zi revolyusiya. U butun Meksika uchun kurashmoqda».Tarjima qilingan asarlarda biz doimo uning kamchiligini topmasdan, balki tarjimonning san’atiga e’tibor qaratishimiz lozim. Chunki, tarjimon o‘z tarjimasida yo o‘sha xalqning yoki o‘z xalqi turmushidan kelib chiqib o‘z ishini amalga oshirishi mumkin, qolaversa, tildagi ma’lum bir tushunchalarni, ba’zi so‘z, iboralarning ikkinchi bir tildagi muqobili bo‘lmasligi mumkin. Bu esa bevosita tarjimonlarda shu tildagi mavjud iboralarni qo‘llanmay qolib asliyatdagi emotsional-ekspressivlikning to‘la ifodalanmasligiga sabab bo‘lmoqda. Masalan, kishining yomon kayfiyati ingliz tilida “to be in a devil of a state” iborasi bilan berilib, o‘zbek tilida «shaytoni tutib turmoq», «jazavasi qo‘zib turmoq» kabi ma’noga teng keladi. Shuningdek, to last one’s eyes, not to open one’s lips iboralari o‘zbek tilidagi «ko‘z tashlamoq», «miq etmaslik» kabi muqobillar orqali beriladi. Shuning uchun ham bunday iboralar yo so‘zma- so‘z, yo tasviriy yo‘l bilan tarjima qilinadi. Shunday qilib, tarjima katta mahorat va

mashaqqat talab qiluvchi jarayon. Uning o‘ziga xos muammolari bor. Tarjima jarayonida tarjimon leksik birliklar, so‘zlar bilan ishlaydi. Har bir so‘zning tarjimasini to‘g’ri va o‘rinli ishlatish ham tarjimonning oldiga katta vazifalarni qo‘yadi. Tarjimon so‘zning mohiyati va mazmunini qanchalik chuqur anglasa, uni o‘zgalarga ham shunday tushintira oladi va har bir o‘girilgan asar maqsadga muvofiq bo‘lib, kitobxonda katta taassurot qoldiradi.Xalqlar turmush tushunchalarini ifoda etadigan lisoniy vositalar tarjimasi bo‘yicha hanuzgacha bizda ham, xorijiy mamlakatlarda ham tarjima amaliyoti ravnaqi uchun ozmi-ko‘pmi xizmat qilishi uchun mumkin bo‘lgan jiddiy tadqiqotlar yaratilmaganligi tufayli mazkur mavzuga oid qator masalalar o‘zining ilmiy amaliy echimini kutmoqda. Rus tarjimashunosi professor A.V.Fedorov[24,181]. va Bolgariyalik olimlar Sergey Vlaxov va Sider Florinlarning [25, 55].ushbu mavzuga bag’ishlab yozgan asarlari masalani atroflicha yoritishdan ko‘ra ilmiy jamoatchilik e’tiborini mazkur muammoga qaratishga ko‘proq urunishgan. Tarjimonni xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan xos so‘zlar ma’no va shakillaridan ko‘ra ko‘proq ularning muayyan kontekstlarda o‘tab keladigan vazifalarini qayta yaratish masalasi mashg’ul qilmog’i darkor. Bu san’atkorni asl nusxadagi xos so‘zlarni beasos tarjima matniga ko‘chirish yoki mumkin bo‘lmagan taqdirda ham uoarni tarjima tilidagi xos so‘zlar bilan almashtirib qo‘yish xavfidan saqlab qoladi. Tarjima amaliyotiga vazifaviy uyg’unlik nuqtai nazaridan yondashish asliyatdagi bunday ifoda vositalarining hajm, vazn, miqdor, xislat, xususiyat va vazifa aniqligini qayta yaratadi, shu bilan birga tarjimaning keng kitobxon ommasiga yaxshi tushunarli bo‘lishiga erishish imkoniyatini beradi. Xos so‘zlarni ona tiliga o‘girishda avvalo ularning muayyan kontekstlarda o‘tab kelayotgan axboriy va uslubiy vazifalarini aniqlash, so‘ngra tarjima tilida ularga har jihatdan mos, ayni payitda shu til me’yori va madaniyati darajasidagi lisoniy vositalar tanlash zarurati tug’iladi. Milliy tushunchalarni ifoda etadigan xos so‘zlarning ayrimlari asliyat mansub bo‘lgan tildan tashqari yana qator xalqlar lafzlarida uchrashi, jumladan tarjima tili lug’at zahirasining ham tarkibiy qismi hisoblanishi mumkin. Bunday so‘zlar hudud, turmush sharoit jihatlaridan bir-birlariga yaqin, doimiy munosabat

va muloqotda bo‘lib turadigan xalqlar lafzida ko‘proq uchraydi. Bu tarjimonni amaliy qiyinchiliklardan xalos etadi. Kavkaz va kavkaz-orti xalqlari, rus-ukrain-belaruslar, o‘zbek-qozoq-qirg’iz-turkman va tojiklar uchun umumiy bo‘lgan ko‘pgina milliy xususiyatli so‘zlar shular jumlasidandir.Muayyan xalq turmush tushunchalarini anglatadigan ko‘pchilik xos so‘zlarning ma’nolari va o‘taydigan vazifalari mamlakatlarning o‘zaro madaniy, iqtisodiy, siyosiy aloqalari natijasida qator xalqlar vakillariga, shu jumladan tarjima tili sohiblariga ham tanish bo‘lib qoladiki, tarjimonlar bunday so‘zlarga o‘z tillarida muqobil lisoniy vositalar qidirib yurmasdan, ularni transliteratsiya yo‘li bilan talqin etaveradilar. Transliteratsiya usulidan foydalanishning asosiy sababi asliyatda qo‘llanilgan milliy xususiyatli lisoniy vositalarning tarjima tilida mavjud bo‘lmaganligi tufayli asliyatning milliy xususiyatini tarjima tili sohiblariga xos xususiyat bilan almashtirib qo‘yish yoki tarjimani umuman bunday xususiyatdan mahrum etish kabi holatlarga yo‘l qo‘ymaslikdan iboratdir. Shunday qilib, transliteratsiya xalqlar turmush tushunchalarini aks ettiradigan xos so‘zlarni tarjimada talqin etishning eng samarali usullaridan bo‘lib, uning yordamida asliyatning milliy xususiyatnin siqiq holda talqin etiladi. Tarjima tilida goho asliyatdagi lisoniy vositalar ma’nolariga ma’lum darajada yaqinroq mazmunli birliklar uchrasada, ular o‘zlarining shartli muqobillaridan yo xislat-xususiyat yoki shakl-hajm-miqdor jihatlaridan farqlanadilarki, bu tafovut ularning tarjimada o‘zaro almashinuviga yo‘l qo‘ymaydi. Masalan, asliyat mansub bo‘lgan xalqqa xos pul hamda boshqa o‘lchov (masofa-uzunlik-sig’im-og’irlik) birliklari, ro‘zg’or ashyolari, kiyim-kechak, egulik-ichkulik kabi ko‘pgina tushunchalarni anglatadigan so‘zlarni transliteratsiya yo‘li bilan talqin etish asarda aks etgan o‘ziga xos muhim va sharoitning kitobxon ko‘z oldida ochiq-oydin jonlanishini ta’minlaydi. Amerika Qo‘shma SHtatlari “dollar”ning, ingliz “funt sterling”ning, nemis “marka”siyu xind “rupiya”sining transliteratsiya qilmasdan, o‘zbek “so‘m”i bilan almashtirib qo‘yilishi, AQSH “brendi”si, ingliz “viski”si, yapon “sake”si, meksika “abardien”ining rus “vodka”si orqali talqin etilishi ingliz boshiga “shlyapa” o‘rniga o‘zbek “do‘ppi”sini, egniga “pal’to” yoki “plashch” o‘rniga “to‘n” yoki “yaktak” kiygizab qo‘yish bilan

barobardir. Binobarin, bolgariyalik olimlar Sergey Vlaxov va Sider Florinlarning A.P.Chexovning “Van’ka” xikoyasi tarjimonni vodkani bolgar ichimligi “rakiya” bilan almashtirmaganlikda ayiblashlariga qo‘shilib bo‘lmaydi.

Asosli transliteratsiya kitobxon tasavvurini boyitadi, uning tili lug’at zahirasini kengaytiradi. Masalan, ruscha “tantsevat’” so‘zi o‘zining birgina ma’nosi bilan o‘zbekcha “raqs tushmoq” birikmasiga mos ekvivalent bo‘la olardi. Uning boshqa bir ma’nosi – erkak va ayolning belu qo‘l ushlashib davrada aylanishini, bu usulda raqs tushish o‘zbeklarga xos bo‘lmagani tufayli o‘zbek tilida o‘z ekvivalentiga ega emas. Mazkur so‘zni transliteratsiya usulida talqin etish esa o‘zbek tili lug’at boyligini kengaytiradi. Hozirgi umumxalq tili lug’at tarkibidan o‘rin olgan “tansa qilmoq” birikmasi azaldan o‘zbekcha “raqsga tushmoq” birikmasi bilan sinonimik qator hosil qilgani holda, omma tasavvurini boyitadi. yoki aksincha “podtyajka” so‘zini “shimni ko‘tarib, tutib turish uchun ikki elka osha tortib qo‘yiladigan tasma” deb tarjima qilinishi ham o‘quvchini jig’iga tegadi ham so‘zni umuman tushunmay qolishi mumkinligi xavfini tug’diradi.

U o‘zini ingliz podtyajkasiga osib o‘ldirishiga bir baxya qolgandi. (Picture of Dorian Grey) ushbu tarjimada tarjimon “ingliz” so‘zini qo‘shish orqali pragmatik adekvatlika juda moxironi erisha olgan.

Qarta o‘yining “duraki” yoki “podkidnoy” turi o‘zbek jamoatchiligiga ma’lum emas edi. Mazkur o‘yinni o‘rganish bilan xalqimiz uning nomlarini ham o‘zicha – transliteratsiya yo‘li bilan qabul qildiki, endilikda mazkur so‘zlar ushbu nutqiy vaziyatda fikr bayon qilishning zaruriy vositalari sifatida xizmat qilmoqda. Lekin ingliz tilidagi “According to Hoyle”, “Ace up one’s sleeve” singari frazeologik iboralar rus tiliga ham o‘zbek tiliga ham singib ketolmadi. Ularning o‘zbekchada biror yaqinroq muqobil ekvivalenti ham yo‘q. “According to Hoyle” frazeologizmi “karta o‘yinini o‘rnatilgan qoidalarga asosan o‘ynamoq” ma’nosini beradi. Masalan:

According to Hoyle, in this game you can’t pick up more than one playing card. This doesn’t seem ethical to me. Are you sure that what we are doing is According to Hoyle?

Edmond Hoyle karta o‘yinlari qoidalarini ishlab chiqqan mashxur ingliz eksperti bo‘lgan. “Are up one’s sleeve” frazeologik iborasi esa engida tuzi bor bo‘lmoq, (tuz o‘yinida eng kuchli karta xisoblanadi) uni engini ichida yashirib o‘yinga kirgan kishi esa muvafaqqiyatga erishishning noqonuniy lekin samarador usuliga ega sanaladi. Bu ibora poker o‘yinida boshqalarni axmoq qilish niyatida engiga ortiqcha tuz yashirib oladigan kishilarga nisbatan qo‘llanilgan.

It looks like Joanne is going to lose, but I wouldn’t be too sure. She may have an ace up her sleeve.

“Makler”, “biznes”, “spikker”, “killer”, “komp’yuter”, “internet”, “menejment” kabi ko‘plab yangi so‘zlar ham o‘zbek tiliga transliteratsiya usuli bilan kirib keliishi bilan lug’at boyligimizni yanada boyidi.

Shunday qilib tarjima amaliyotining transliteratsiya usuli milliy tillar boyishiga keng yo‘l ochgani holda, ularning fikr bayon qilish imkoniyatini oshiradi, adekvat, shu bilan birga asliyat milliy bo‘yog’ini kitobxon ko‘z oldida aynan jonlantiradigan ifodalar vujudga keladi. Xozirgi kunda o‘zbek tili jahonning boy va qudratli tillaridan biriga aylangan ekan, uni bu darajaga etkazgan omillardan biri lug’at tarkibidagi ko‘pchilik o‘zga xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan lisoniy vositalarning transliteratsiya usuli bilan qabul qilinib, tilning har qanday nozik fikrni ham ifoda eta olishi layoqatini oshirib yuborganidir.

Ammo ba’zan transliteratsiya usuli ayrim tarjimonlar tomonidan suiiste’mol qilinadi. Ular milliy bo‘yoqdan xoli bo‘lib, tarjima tilida o‘zlarining ma’no va vazifalari jihatlaridan uyg’un ekvivalentlarga ega bo‘lgan lisoniy vositalarni ham mazkur usul yordamida talqin etadilarki, bu hol kitobxonning bayon qilingan fikrni anglashini mushkullashtiradi. Masalan, o‘zbek tilidan ruschaga o‘girligan qator asarlar tarjimasida “rais”, “hammom”, “aka”, “uka”, “yor”, “eshak” kabi ko‘pchilik milliylikdan xoli so‘zlarning milliy xususiyatli hisoblanib, betarjima qoldirilishi tarjimonlarning milliy xususiyatni o‘zgacha tasvvur etishlaridan darak beradi.O‘zbek tilidan ruschaga o‘girilgan asarlar yoki dublyaj qilingan filmlar personajlarining goho o‘zaro “salom”, “assalomu alaykum” deb salomlashishlarining guvohi bo‘lyapmiz. Vaholanki, o‘zbekcha “salom”,

“assalomu alaykum” shakliyalari hisoblanadilar .O‘z-o‘zidan ma’lumki muayyan xalq turmush tarzini ifoda etadigan so‘zlargina bunday tushunchalarga ega bo‘lmagan xalqlar tillariga betarjima – asliyatdagi shaklida o‘tkaziladi, shu tariqa tarjimada muallif matnining milliy bo‘yog’i adekvat talqin etiladi. Masalan, “taxmon”, “xo‘rjun”, “palov”, “paranji”, “supa”, “sumak”, “nos”, “ketmon” kabi o‘zbeklar turmush tarzigagina xos ifoda vositalarini bunday tushunchalarni anglatadigan lisoniy birliklarga ega bo‘lmagan ingliz va rus xalqlari tillariga qilingan o‘girmalarida betarjima aynan keltirilishi asliyatning milliy xususiyatini saqlab qolish bilan birga, tarjima tillari lug’at tarkibi kengayishi uchun zamin yaratish imkoniyatini beradi. Sharq g’azaliyoti maftuni bo‘lmish buyuk olmon shoiri Gyote o‘z tiliga nafaqat “g’azal” so‘zini tarsliteratsiya vositasida olib kirdi, balki shu janrda o‘zi ham ijod qildi va boshqa vatandoshlarini ham bunga da’vat etdi.Vazifaviy uyg’unlik haqida gap ketar ekan, shuni qayd etish lozimki, asarlarida Sharq hayoti tasvirlanayotgan ayrim o‘zga millat yozuvchilari ham o‘z tillarida mavjud qator lisoniy vositalar o‘rniga, ehtiyoj sezmasa-da, ularning lug’aviy ekvivalenti bo‘lmish sharqona so‘z va so‘z birikmalarni qo‘llaydilar. Bu so‘zlar, hamma vaqt ham mualliflar istagiga bo‘ysunib, sharqona bo‘yoqni yaratavermaydi, chunki ular ko‘pincha hech qanday qo‘shimcha mazmun yoki milliy bo‘yoq kasb etmasdan, o‘zlari mansub bo‘lgan tillarning axboriy vazifasi, shu bilan birga boshqa tilda o‘z lug’aviy ekvivalentlariga ega bo‘lgan vositalari hisoblanadi.

Asliyat tili muhitini yaratish maqsadida tarjima tilida muqobil ekvivalentlari bo‘lmagan lisoniy vositalarni hamma vaqt transliteratsiya yo‘li bilan beraverib bo‘lmaydi. Tarjima tili lug’at tarkibidan o‘rin olmagan vositalar aksariyat hollarda kitobxonga asliyatda bayon etilgan fikr haqida to‘g’ri tasavvur berishga ojizlik qiladi. Transliteratsiya usuli ayniqsa miqdoriy tushunchalarni o‘ziga xos tarzda ifoda etadigan inglizcha “a dozen” (on ikki), “a score” (yigirma) so‘zlari talqinida o‘zini oqlamaydi. Masalan, “a dozen” so‘zi turli kontekstlarda o‘zining moddiy-mantiqiy ma’nosiga nisbatan ko‘proq hissiy mubolag’a yaratish hamda “ko‘p” ma’nosini chama orqali ifodalash vazifalarini o‘tab keladiki, uning lug’aviy

ekvivalenti bo‘lmish o‘zbekcha “o‘n ikki” soni aniq miqdornigina anglatadi. O‘zbekcha son inglizcha “a dozen” singari badiiy nutq tarkibida o‘zining moddiy-mantiqiy ma’nosidan mavhumlashib, turli-tuman uslubiy vosita va priyomlar tarkibida majoziy ishlatilishi xususiyatiga ega emas. Bunday nomuvofiqlik inglizcha so‘zni o‘zbek tiliga faqat transliteratsiya yo‘li bilangina talqin etish lozimligini bildirmaydi. O‘zbek tilida mantiqiy ma’nosidan tegishli kontekstlarda uzoqlashib, mazkur so‘z ma’no va vazifasini adekvat aks ettirgan “o‘n”, “o‘n chog’li”, “o‘n-o‘n besh” sonlari mavjudki, tarjima jarayonida ulardan unumli foydalanish imkoniyati bo‘lsa-da, goho tarjimonlar so‘zni transliteratsiya yo‘li bilan berib, shakl va mazmun mutanosibligiga putr etkazadilar. Shekspirning “Otello” tragediyasidagi dialog tarkibida “a dozen” so‘zi hissiy mubolag’a yaratish uchun qo‘llanilgan ekan.

Dezdemona: I don’t think there is any such woman.

Dezdemona: Shunday xotin borligiga hech ishonmayman.

Emilia: Yes, a dozen – Oth.

Emiliya: Bundaylardan dyujinlab topiladi.

Bu erda Emilya eriga xiyonat qiladigan xotinlarni istagancha topish mumkinligini mubolag’ali bayon etgan ekan, bunday vazifani o‘zbek tilida “o‘nlab” soni ifoda eta oladiki, tarjimon mavjud imkoniyatdan foydalanmagan.1956 yildagi tarjimada mazkur so‘zning aniq miqdorini anglatadigan son yordamida o‘girilishi muallif nazarda tutgan mubolag’ali ifodani uslubiy betaraf bayonga aylantirib qo‘ygan.

Asliyatdagi “a dozen” va uning tarjimasi o‘zining aniq-miqdoriy “o‘n ikki” ma’nosida ishlatilmasdan, fikrning mubolag’ali bayoni uchun xizmat qilayotganligi tufayli o‘zbekcha tarjimada “o‘n” sonidan foydalanish asliymonand ifodani yuzaga keltirgan bo‘lardi.

Ayrim nutqiy vaziyatda “a dozen” “ko‘p” ma’nosining chama orqali ifodasi uchun ishlatiladi. Bunday hollarda ham tranliteratsiya usuliga murojaat qilinmaydi, balki ularga o‘zbek tilida “o‘ntacha” chama hamda chama ma’no belgisini ifodalovchi “o‘n-o‘n besh” juft soni vazifaviy mos keladi.

